



INVESTITSİYALAR — IQTISODIY TARAQQIYOT HAMDA TINCHLIK VA BARQARORLIK KAFOLATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-iyun kuni poytaxtimizdagi Xalqaro kongress markazida to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida ishtirok etdi.



Tadbirda Bolgariya Prezidenti Rumen Radev, Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso, Qozog‘iston Bosh vaziri Oljas Bektenov, Qirg‘iziston Hukumati raisi Adilbek Kasimiyev, Tojikiston Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadov, Rossiya Hukumati raisi o‘rinbosari Aleksandr Novak, Turkmaniston

Vazirlar Mahkamasi raisi o‘rinbosari Nokerguli Ataguliyev hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso va Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusef ham qatnashdi.

Umuman, forumga 100 ga yaqin mamlakatdan 7,5 mingdan ortiq delegat,

jumladan, 3 mingga yaqin xorijiy mehmon tashrif buyurdi. Bu yilgi tadbir yangi, kengaytirilgan shaklda o‘tkazilmoqda. Uning doirasida ilk bor O‘zbekiston kompaniyalarining loyihalari va qo‘shma tashabbuslari namoyish etilayotgan ixtisoslashgan ko‘rgazma tashkil etildi.

[Davomi 2-beta](#)

O‘ZBEKISTON — BOLGARIYA O‘RTASIDAGI HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turibdi.



10-iyun kuni Ko‘ksaroy qarorgohida Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.

Qarorgoh oldidagi maydonda ikki mamlakat davlat bayroqlari ko‘tarildi, faxriy qorovul saf tortdi.

Prezidentimiz oliy martabali mehmonni samimiy qarshi olib, shohsupaga taklif etdi.

Davlat madhiyalari yangradi. Harbiy orkestr sadolari ostida yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radevning rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

[Davomi 2-beta](#)

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI XORIJIY DELEGATSIYALAR RAHBARLARINI QABUL QILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-iyun kuni to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov, Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov, Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi – Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimiyev, Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o‘rinbosari Aleksandr Novak, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o‘rinbosari Nokerguli Ataguliyevni qabul qildi.



Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov bilan uchrashuv avvalida O‘zbekiston yetakchisiga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Ozarbayjon o‘rtasidagi do‘stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlari yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Iqtisodiy kooperatsiya yili doirasida birgalikda samarali ishlar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmi ortmoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan, qo‘shma Investitsiya



kompaniyasi ko‘magida amalga oshirilayotgan kooperatsiya loyihalari qizg‘in pallaga kirgan. Faol madaniy-gumanitar almashinuvlar davom etmoqda.

Erishilgan kelishuvlar ijrosini nazorat qilish

va bo‘ljak oliy darajadagi uchrashuv uchun yangi tashabbuslarni ilgari surish maqsadida hukumatlar darajasida yaqindan amaliy hamkorlikni davom ettirish muhim ekani ta’kidlandi.

Shu ma’noda, Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi va ikki mamlakat hududlari forumining yuqori natijadorligini ta’minlash zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

[Davomi 2-beta](#)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TO‘RTINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

Hurmatli forum ishtirokchilari!
Xonimlar va janoblar!
Aziz mehmonlar!

Avvalo, sizlarni — hamkor davlatlarimizning yuqori martabali vakillari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, biznes olamining yirik namoyandalari to‘rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida chin qalbidan samimiy qutlayman.

Tadbirimizda qatnashayotgan Bolgariya Prezidenti Rumen Radev Janobi Oliyarlari, Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso Janobi Oliyarlari, Qozog‘iston Bosh vaziri Oljas Bektenov Janobi Oliyarlari, Qirg‘iziston

Hukumati raisi Adilbek Kasimiyev Janobi Oliyarlari, Tojikiston Bosh vaziri Qohir Rasulzoda Janobi Oliyarlari, Ozarbayjon Bosh vaziri Ali Asadov Janobi Oliyarlari, Rossiya Federatsiyasi Hukumati raisi o‘rinbosari Aleksandr Novak Janoblari, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisi o‘rinbosari Nokerguli Ataguliyev Janoblarini ko‘rib turganimdan g‘oyat xursandman.

Shuningdek, Rossiya, Xitoy, Amerika Qo‘shma Shtatlari, arab davlatlari hamda Yevropa, Osiyo va Afrika mintaqalaridan kelgan nufuzli delegatsiyalarni ham chin dildan qutlayman.

Biz bilan yaqindan hamkorlik qilayotgan moliyaviy institutlar rahbarlari — Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki prezidenti Odil Reno-Basso xonim va Yangi taraqqiyot banki prezidenti Dilma Rusef xonimga alohida minnatdorlik izhor etaman.

Bugungi forumda 7,5 mingdan ortiq delegat, jumladan, 100 ga yaqin davlatdan salkam 3 ming nafar xorijiy mehmon ishtirok etmoqda. Biz buni, avvalambor, mamlakatimizga bo‘lgan hurmat, o‘zaro ishonch va yaqin hamkorlikning chinakam ifodasi sifatida qabul qilamiz.

[Davomi 2-beta](#)

XALQIMIZNI YANADA BIRLASHTIRGAN UNUTILMAS YUTUQ

Prezident Shavkat Mirziyoyev 10-iyun kuni “Bunyodkor” stadioniga tashrif buyurib, futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi o‘yinini tomosha qildi.

Bu oddiy o‘yin emas, o‘zbek futbolining katta bayrami. Jahon chempionati saralash bosqichining so‘nggi uchrashuvi. Lekin mohir sportchilarimiz mundial yo‘llanmasini muddatidan oldin naqd qilib qo‘ygan —

O‘zbekiston milliy terma jamoasi tarixda ilk bor futbol bo‘yicha jahon chempionatida ishtirok etadi!

[Davomi 3-beta](#)



2025-yil 11-iyun, 118-son



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz

SIYOSAT

YANGI O‘ZBEKISTON

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TO‘RTINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston zaminiga xush kelibsiz, qadri do‘stlar! Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Bugungi dunyo katta sinovlarni boshidan kechirmoqda. Global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga jiddiy tahdiddir tobora kuchaymoqda, geosiyosiy jarayonlar ko‘z o‘ngimizda shiddat bilan o‘zgarmoqda.

Jahonda qurollanish poygasi yana avj olmoqda. Yirik mamlakatlarning harbiy xarajatlari 2010-yilga nisbatan bir yarim barobar ortib, 2,5 trillion dollarga yetdi. Iqtisodiy inqiroz asoratlar, moliyaviy resurslar taqchilligi tufayli jahon yalpi ichki mahsulotining o‘shish sur‘atlari esa ketmak-et uch yil davomida pasaymoqda.

Ming afsuski, xalqaro huquq normalari va diplomatiya kuchi zaiflashmoqda. Eng achinarlisi, insoniyat uchun eng dolzarb muammolar — oziq-ovqat xavfsizligi, kambag‘alik, iqlim o‘zgarishlari kabi masalalarga e‘tibor kamaymoqda. Dunyo datchiligi, adolat va inson qadriga bo‘lgan umumiy ishonchni tiklash har qachongidan ham muhim.

Biz Ukraina bilan bog‘liq vaziyatni faqat diplomatik yo‘llar bilan hal etish zarur deb hisoblaymiz va Istanbulda bo‘lib o‘tayotgan to‘g‘ridan to‘g‘ri muzokaralarni olqishlaymiz.

Shu bilan birga, ko‘pdan buyon cho‘zilayotgan G‘azo fojiasiga e‘tiboringizni qaratmoqchiman. XXI asrda ko‘z o‘ngimizda ko‘plab begunoh insonlarning nobud bo‘layotganini hech nima bilan oqlab bo‘lmaydi. Bu muammoing yagona yechimi — nizoni xalqaro huquq me‘yoriari va qabul qilingan rezolyutsiyalar asosida adolati hal qilishdir. Falastin xalqi o‘z mustaqil davlatiga ega bo‘lishga haqlidir.

Global kun tartibidagi yana bir masala — bu qo‘shni Afg‘onistonning tinch va barqaror rivojlanishiga ko‘maklashishdan iborat. Bu davlatning amaldagi hukumati bilan xalqaro maydonda konstruktiv mulokat olib borish, uning yakkalalanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik har qachongidan ham muhim. Zero, mazkur mamlakatdagi osoyishtalik va iqtisodiy rivojlanish yo‘n-atrofdagi barcha mintaqalarning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun zarur omildir.

Men hozir ta‘kidlab o‘tgan muammolar bo‘yicha barcha shirik davlatlarimizni ochiq va keng ko‘lamli xalqaro hamkorlikka chaqiramiz. Chunki, forumning asosiy mavzusi bo‘lgan investitsiyalar — faqat iqtisodiy taraqqiyotning emas, balki tinchlik va barqarorlikning kafolatidir!

Keling, birgalikda shunday investitsiya muhitini yarataylikki, u daromad keltirish bilan birga, inson qadriini ulug‘laydigan, uning hayotiy manfaatlarini ta‘minlaydigan va jamiyat ravnaqiga xizmat qiladigan mustahkam poydevorga aylanisin!

Aziz mehmonlar! Hozirgi qiyin sharoitida biz O‘zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishga asosiy e‘tibor qarataymiz.

Yalpi ichki mahsulotimiz sakkiz yilda 2 barobar ko‘paydi. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkichni 200 milliard dollarga yetkazishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yidik.

O‘tgan yili investitsiya hajmi 35 milliard dollarga, eksportimiz 27 milliard dollarga yetgani — to‘rt yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan Toshkent xalqaro investitsiya forumining ham amaliy natijasidir.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar samarasi xalqaro reytinglarda ham o‘zining munosib aksini topmoqda. “Iqtisodiy erkinlik indeksi”dagi o‘rnimiz so‘nggi besh yilda 48 pog‘onaga yuqori ko‘tarildi. Garvardning “Iqtisodiyot murakkabligi indeksi”dagi o‘rnimiz 28 pog‘onaga yaxshilandi. O‘tgan oyda nufuzli “S&P” agentligi O‘zbekistonning suveren reytingi prognozini “barqaror”dan “ijobiy”ga oshirdi.

Bugun dunyo iqtisodiyoti yangi davr va o‘zgarishlar ostonasida turganini barchamiz yaxshi tushunamiz. Bu esa barqaror rivojlanish yo‘lidan borayotgan davlatlarni quyidagi to‘rtta yo‘nalishda hamkorlikda ishlashga undamoqda.

Birinchidan, “yashil” iqtisodiyotni modeliga o‘tish. Biz iqtisodiyotimizni barqaror energiya resurslari bilan ta‘minlash uchun aynan “yashil” energetikani rivojlantirishga qattiq bel bog‘laganmiz.

O‘tgan qisqa davrda bu sohaga qariyb 6 milliard dollar to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya kirib keldi. Elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi 59 milliarddan 82 milliard kilovatt-soatga yetdi. Keyingi besh yilda bu ko‘rsatkich 120 milliard kilovatt-soatdan oshib, “yashil” energiya ulushi 54 foizga yetadi.

Shuningdek, elektr tarmoqlarini yangilashga ham 4 milliard dollar jalb qilimiz.

Bu borada joriy yilda Samarqandda, kelgusi yildan yana 8 ta hududda elektr tarmoqlarini xususiy sheriklikka beramiz.

Bundan tashqari, ilk bor “yashil” sertifikat va uglerod birliklari savdosini boshladik. Shu yil global uglerod bozorlariga qo‘shilib, “Yashil O‘zbekiston” iqlim investitsiyalari platformasini yaratamiz.

Ikkinchidan, raqamli texnologiya va sun‘iy intellekt iqtisodiyotning “drayveri”ga aylanmoqda.

Mamlakatimizda shu yilning o‘zida IT eksporti 1 milliard dollarga yetadi. 2030-yilga borib, bu ko‘rsatkichni 5 karra oshirish uchun salohiyatimiz ham, imkoniyatimiz ham yetarli.

Bu ishlarimiz xalqaro darajada e‘tirof etilib, Sun‘iy intellektga tayyorlik bo‘yicha xalqaro indeksda bir yilda 17 pog‘onaga ko‘tarilidik.

Kelgusi yil “Buluti texnologiyalar” milliy platformasi ishga tushadi. Yaqin besh yilda xususiy investorlar bilan birga quvvati 500 megavattidan ziyod 20 ta “data markaz” barpo etamiz.

Shuningdek, boy tariximiz, azaliy qadriyatlarimiz hamda yangi kreativ g‘oyalarni mujassam etgan sun‘iy intellektning milliy modelini ishlab chiqamiz. Bu tizim samaradorligini ta‘minlash uchun “Bir million sun‘iy intellekt yetakchilari” loyihasini boshladik.

Ishonchim komil, sizlar bilan birgalikda O‘zbekistonni nufuzli IT va Fintech xabiga aylantiramiz.

Uchinchidan, bugungi sharoitda moliyaviy tizim va texnologiyalar keskin o‘zgarmoqda.

Biz yaqinda Xalqaro valyuta jamg‘armasi va Jahon banki bilan birga O‘zbekiston moliya sektorini ilk bor kompleks baholashdan o‘tkazdik. Ular bank, moliya, sug‘urta, kapital bozoridagi islohotlarimizni to‘liq qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu sohalarini keyingi rivojlanish bosqichiga olib chiqish maqsadida O‘zbekistonda Moliyaviy barqarorlik kengashi tashkil etiladi, Markaziy bankda kibernetizatsiya va moliyaviy texnologiyalar platformalari ishga tushiriladi.

Sug‘urta tizimida ham katta islohotlarni boshladik. Milliy qayta sug‘urtalash kompaniyasi va Global qayta sug‘urtalash raqamli platformasi tashkil etildi.

Startaplar uchun muqobil moliyaviy instrument — ventchurlar bizda tez rivojlanib boryapti. Misol uchun, o‘tgan yili 2 ta startap kompaniyamizning qiymati ilk bor 1 milliard dollardan oshdi. Bunday kompaniyalarni albatta ko‘paytiramiz.

Shu bois, “Muqobil investitsiya jamg‘armalari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Kelgusi besh yilda ventchur va boshqa muqobil samoyalar hajmini 1 milliard dollarga olib chiqamiz.

Yana bir yo‘nalish. “To‘rtinchi sanoat inqilobi” “texnologik mineralar”ga talabni bir necha karra ko‘paytirmoqda.

O‘zbekistonda volfram, molibden, magniy, litiy, grafit, vanadiy, titan va boshqa minerallarning katta zaxirasi aniqlangan. Umuman, yer osti boyliklarimizning salohiyati 3 trillion dollarga baholalanmoqda.

Mintaqamizning mineralardan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish “xabi”ga aylanishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Bu borada Toshkent va Samarqand viloyatlarida “Kelajak metallari texnopark”ni bunoyd etmoqdamiz.

Shu o‘rinda bir tashabbusni ilgari surmoqchiman: bu sohada geologiya-qidiruv ishlaridan boshlab, tayyor mahsulot zanjirini yo‘lga qo‘ygan investorlarga o‘n yil davomida renta solig‘i qaytarib beriladi.

Ishonchim komil, sizlar bilan uzoq muddatli samarali aloqalarimiz aytib o‘tilgan barcha yo‘nalishlarda o‘zaro manfaatli biznes hamkorlikka aylanadi.

Hurmatli investorlar!

Biz “Yangi O‘zbekiston — investitsiyalar uchun katta imkoniyatlar mamlakati” degan tamoyilni amaliy natijalarga aylantirish maqsadida barcha choralarni ko‘ryapmiz.

Eng avvalo, bir narsaga e‘tiboringizni qaratmoqchiman: global ishlab chiqarish zanjirlarida bir bir davlat uchun eng sharoitini ta‘minlaydigan ishonchli qoidalar bo‘lishi shart va zarur.

Hech shubhasiz, bu borada Jahon savdo tashkilotining alohida o‘rni bor. Shu bois, kelgusi yilda ushbu Tashkilotning a‘zosiqa aylanish bo‘yicha oldimizga maqsad qo‘yganmiz va bu borada hamkorliklash bilan faol ishlayapmiz. Buning uchun o‘nlab qonun, yuzlab standartlarni xalqaro talablarga moslashtirdik va bu ishlarni shu yil to‘liq yakuniga yetkazamiz.

Ikkinchidan, mamlakatimizda xorijiy sarmoyadorlarga yanada qulay muhit yaratish uchun mahalliy kompaniyalar

bilan bir xil sharoitlarni kafolatlovchi “milliy rejim” joriy qilinadi, davlat organlari bilan munosabarga kirishishda “yagona darcha” tamoyili tabiiq etilishi belgilandi, investitsiya faoliyatini o‘rtiqcha tekshiruvlardan kafolati himoyalash tizimi yaratiladi.

Bular orqali 2030-yilga borib, O‘zbekistonning kredit reytingini “investment” darajaga olib chiqishni maqsad qilib qo‘yganmiz.

Uchinchidan, biz davlat kompaniyalarini xususiylashtirishda ularni yurtimiz farovonligiga xizmat qiluvchi yirik aktivlarga aylantirish yo‘lini tanlaganmiz.

Shu bois, 18 ta yirik kompaniya va banklardagi qariyb 2 milliard dollarlik davlat ulushini o‘zida birlashtirgan “Milliy investitsiya jamg‘armasi” tashkil etildi. Jamg‘arma boshqaruviga nufuzli “Franklin Templeton” kompaniyasi jalb qilindi. Kelgusi yilning o‘zida jamg‘armaning aksiyalar paketi xalqaro IPO ga chiqariladi.

Shuningdek, professional konsultantlar jalb qilinib, ikki yilda 29 ta yirik davlat kompaniyasi xususiylashtiriladi.

To‘rtinchidan, biz transport va logistika sohasini iqtisodiyotimizning qon tomiri sifatida ko‘ramiz.

Shu bois, bu sohaga ham xususiy kapitalni faol jalb qilmoqdamiz. Birgina misol, Samarqand, Namangan, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlari davlat-xususiy sheriklik asosida salohiyatli investorlar boshqaruviga berildi.

Urganch aeroporti boshqaruviga dunyoning yetakchi “Inchxon” kompaniyasi jalb qilindi. Kelgusi yilda Nukus, Termez, Farg‘ona, Navoiy aeroportlari bo‘yicha ham tenderlar o‘tkazamiz.

Yana bir muhim yo‘nalish — poytaxtimizda yashab va ishlayotgan aholi soni 5 milliondan oshdi. Shu bois, 2 million aholiga mo‘ljallangan “Yangi Toshkent” shahrini barpo etib, poytaxtni megapolisga aylantiramiz.

Bu yerda yiliga 20 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega aeroport, temir yo‘l va avtomobil transportini qamrab olgan “multimodal xab” quriladi. Yirik savdo komplekslari va moliya markazlari qad ko‘taradi.

Ushbu mega loyihani birgalikda amalga oshirish uchun investorlar, xalqaro moliya institutlari va xorijiy banklarni taklif qilamiz.

Beshinchidan, so‘nggi yillarda qo‘shnilarimiz bilan yo‘lga qo‘yilgan ochiq va do‘stona siyosat natijasida Markaziy Osiyoda mutlaqo yangi hamkorlik muhiti shakllandi.

Bugun ushbu davlatlarning hukumat rahbarlari forumda ishtirok etayotgani ham so‘zimizning yaqqol isbotidir.

E‘tibor bering, sakkiz yilda qo‘shnilarimiz bilan tovar aylanmasi hajmi 3,5 barobardan ziyod oshib, qariyb 13 milliard dollarga yetdi.

Katta investitsiya loyihalarini amalga oshirilmog‘da. Jumladan, “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurishni boshladik, yirik energetika va infratuzilma loyihalarini tayyorlash bo‘yicha salmoqli ishlar qilinmoqda.

Umuman, biz Markaziy Osiyoda “Investitsiya va savdo uchun yaxlit hudud konsepsiyasi”ni ilgari surishni taklif qilamiz.

Shu o‘rinda xalqaro tashkilotlarga murojaat qilmoqchiman: mintaqaviy loyihalarini qo‘llab-quvvatlash uchun yangi moliyaviy mexanizmlarni yo‘lga qo‘yish vaqti keldi. Birgalikda harakat qilsak, Markaziy Osiyoni tinchlik va taraqqiyot makoniga aylantiramiz.

Hurmatli forum yangi, kengaytirilgan formatda o‘tkazilmoqda. Uning doirasida ilk bor ixtisoslashgan ko‘rgazma tashkil etilib, unda O‘zbekiston kompaniyalari o‘z loyihalarini va qo‘shma tashabbuslari bilan ishtirok etmoqda.

Bir masalaga alohida urg‘u bermoqchiman: biz uchun investitsiya — faqatgina moliyaviy mamba emas. Bu — texnologiya, bilim, malakali kadrlar, xalqaro ishlab chiqarish zanjiriga qo‘shilish, ya‘ni haqiqiy taraqqiyot demakdir.

Bir masalaga alohida urg‘u bermoqchiman: biz uchun investitsiya — faqatgina moliyaviy mamba emas. Bu — texnologiya, bilim, malakali kadrlar, xalqaro ishlab chiqarish zanjiriga qo‘shilish, ya‘ni haqiqiy taraqqiyot demakdir.

Bir masalaga alohida urg‘u bermoqchiman: biz uchun investitsiya — faqatgina moliyaviy mamba emas. Bu — texnologiya, bilim, malakali kadrlar, xalqaro ishlab chiqarish zanjiriga qo‘shilish, ya‘ni haqiqiy taraqqiyot demakdir.

Bir masalaga alohida urg‘u bermoqchiman: biz uchun investitsiya — faqatgina moliyaviy mamba emas. Bu — texnologiya, bilim, malakali kadrlar, xalqaro ishlab chiqarish zanjiriga qo‘shilish, ya‘ni haqiqiy taraqqiyot demakdir.

Barchangizga omad va ulkan yutuqlar tilayman.

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston bilan Bolgariya o‘rtasidagi amaliy hamkorlikni yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Ta‘kidlash joiz, ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992-yilda o‘rnatilgan. So‘nggi yillarda oliy va yuqori darajadagi ikki tomonlama aloqalar faollashdi.

Davlatimiz rahbari Bolgariya yetakchisini samimiy qutlab, so‘nggi 17 yildagi birinchi sammit tarixiy ahamiyatga ega ekanini, O‘zbekiston — Bolgariya do‘stlik va sheriklik munosabatlarini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishini ta‘kidladi.

Parlamentlar, iqtisodiyot va tashqi siyosat idoralari o‘rtasidagi hamkorlik faollashgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash ko‘rsatkichlari o‘smog‘da, kooperatsiyaning yangi yo‘nalishlari va loyihalarini ishlab chiqilmoqda.

Gumanitar almashinuvlar amalga oshirilmog‘da, Buxoro va Varna, Samarqand va Plovdiv o‘rtasida birodarlik aloqalari o‘rnatilgan.

Ko‘p qirrali hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida tashqi siyosat idoralari o‘rtasida tizimli aloqalarni yo‘lga qo‘yish muhimligi qayd etildi.

Savdoni, eng avvalo, to‘g‘qimachilik, oziq-ovqat, kimyo va farmatsevtika mahsulotlari, metall buyumlar va texnologik uskunalar yetkazib berishni kengaytirish orqali ko‘paytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

O‘zaro savdoning o‘rnatilishini rag‘batlantirish maqsadida poytaxtlarda savdo uylari ochish, laboratoriyalarni akkreditatsiyadan o‘tkazish va imtiyozli kredit liniyalari ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilindi.

Agrosanoat majmui va oziq-ovqat sanoati, farmatsevtika, geologiya, sun‘iy intellekt, raqamli texnologiyalar va IT, turizm sohaslarida qo‘shma loyihalarini ilgari surish ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etildi.

Samarali yer usti va havo transporti yo‘laklarini rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Shu ma‘noda, tomonlar ikki davlat o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aviagavanlarni yo‘lga qo‘yish imkoniyatini ko‘rib chiqishga kelishib oldilar.

Mehnat resurslari sohasida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun Sofiya shahrida O‘zbekiston Respublikasi Migratsiya agentligining vakolatxonasini ochish masalasi ko‘rib chiqiladi.

Gumanitar aloqalarni, shu jumladan, akademik va ilmiy almashinuvlarni faollashtirish, joriy yilda Andijon shahrida yetakchi

oliy ta‘lim muassasalari rektorlarining uchrashuvini o‘tkazish tashabbuslari qo‘llab-quvvatlandi.

Shuningdek, kelgusi yilda O‘zbekiston va Bolgariya madaniyati hamda kinoi haftaligini tashkil etishga kelishib olindi.

Erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan tizimli nazoratni ta‘minlash maqsadida tomonlar qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni qabul qilish va Hukumatlararo komissiya hamraisilari darajasini oshirish, uning ishiga hududlar va yirik kompaniyalar rahbarlarini jalb qilishga ahdlashildi.

Uchrashuv yakunida Prezident Rumen Radev Prezident Shavkat Mirziyoyevni o‘zi uchun qulay vaqtda javob tashrif bilan Bolgariyaga borishga taklif etdi.

Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radev Ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirish to‘g‘risida qo‘shma deklaratsiyani imzoladilar.

Yetakchilar huzurida ikki tomonlama hujjatlar, jumladan, Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan hamkorlik dasturi hamda Toshkent va Sofiya shaharlari o‘rtasida sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi bitim almashildi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida Ko‘ksaroy qarorgohida daraxt ekish marosimi bo‘ldi.

Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Rumen Radev xalqlarimiz do‘stligi va hamkorligi, ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi sahifa ochishga mustakratl itilishning ifodasi sifatida Faxriy mehmonlar xiyobonida daraxt ekdilar.

Shu kuni oliy martabali mehmon “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Rumen Radev ushbu muazzam bog‘ning bunoyd etilish tarixi bilan tanishdi. Monumentda aks etirilgan buyuk alomalar, qahramon sarkarda va jahongirlar, jadid bobolarimiz haqida so‘zlab berildi.

Delegatsiya a‘zolari “Yangi O‘zbekiston” majmuasining g‘oyaviy va me‘moriy yechimlariga e‘tibor qaratdi. Bu yerdagi bog‘ — noyab daraxt va gul-chechaklar, amfiteatr, favvoralar uyg‘unligi e‘tirof etildi.

Bolgariya Respublikasi Prezidenti Rumen Radevning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV, O‘zA muxbiri

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI XORIJIY DELEGATSIYALAR RAHBARLARINI QABUL QILDI

Boshlanishi 1-betda

Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov davlatimiz rahbariga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning salomi va eng euzu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlar doirasida O‘zbekiston — Qozog‘iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Tovar ayirboshlash barqaror ortib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Avtosanoat, elektrotexnika, to‘qimachilik, metallurgiya, farmatsevtika, qurilish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmog‘da.

O‘zaro savdoni ko‘paytirish va ustuvor tarmoqlarda, shu jumladan, hududlar darajasida sanoat kooperatsiyasining uzoq muddatli dasturini shakllantirish bo‘yicha ikki mamlakat hukumatlari tomonidan muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar ko‘rilishi muhim ekani qayd etildi.

Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi — Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Maksimayev davlatimiz rahbariga Qirg‘iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning salomi va eng euzu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston o‘rtasidagi do‘stlik va keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash, savdo hajmini oshirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish, hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvni faollashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Energetika va transport kommunikatsiyalaridagi yirik mintaqaviy loyihalarini, shu jumladan, Qambarota GES-1 va “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishini jadallashtirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Joriy yilda o‘tkaziladigan Hukumatlararo komissiya va Hududlar rahbarlari kengashining navbatdagi yig‘inlarini samarali tashkil etish muhimligi ta‘kidlandi.

Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda davlatimiz rahbariga Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning salomi va eng euzu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Tojikiston do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini oliy darajadagi kelishuvlar

ijrosi doirasida yanada mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Ko‘p qirrali hamkorlikda yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash va yuk tashish hajmi ortmoqda, sanoat, energetika, elektrotexnika, to‘qimachilik, qishloq xo‘jaligi va boshqa ustuvor tarmoqlarda kooperatsiya loyihalarini amalga oshirilmog‘da.

Samarali hududlararo aloqalar va faol madaniy-gumanitar almashinuv yo‘lga qo‘yilgan.

Sheriklikning yangi iqtisodiy kun tartibini shakllantirish, tovar ayirboshlashni ko‘paytirish bo‘yicha ta‘sirchan choralarni ishlab chiqish, kooperatsiya va chegarabolit hamkorlik loyihalarini faol ilgari surish muhim ekani ta‘kidlandi.

Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining o‘rinbosari Aleksandr Novak davlatimiz rahbariga Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning salomi va eng euzu tilaklarini yetkazdi hamda forum muvaffaqiyatli o‘tayotgani bilan tabriklandi.

O‘tgan yili may oyida Rossiya yetakchisining O‘zbekistonga davlat tashrifi va oliy darajadagi boshqa mulokatlar davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Energetika sohasidagi o‘zaro manfaatli sheriklikni kengaytirish, neft-gaz tarmog‘idagi qo‘shma loyihalarini jadallashtirish, tinch atom sohasida hamkorlikni yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o‘rinbosari Nokerugli Atagulyev davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovning salomi va eng euzu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Savdo-iqtisodiyot, transport-kommunikatsiya, energetika, suv xo‘jaligi sohaslarida keng ko‘lamli hamkorlikning yangi kun tartibini shakllantirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarda kooperatsiyani kuchaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Bo‘ljak Hududlar forumi hamda qator qo‘shma ishbilarmonlik va madaniy tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhim ekani ta‘kidlandi.

O‘zA

INVESTITSIYALAR — IQTISODIY TARAQQIYOT HAMDA TINCHLIK VA BARQARORLIK KAFOLATI

Boshlanishi 1-betda

XALQIMIZNI YANADA BIRLASHTIRGAN UNUTILMAS YUTUQ

Boshlanishi 1-betda

Buni futbolsevar xalqimiz koʻp yillar orziqib kutgan edi. Terma jamoamiz bundan oldin yetti marta saralashlarda qatnashib, mundialga chiqa olmagandi. Har doim yo taqvim, yo gollar nisbati, yo mahorat yetishmasligi sabab boʻlib qolaverardi.

Hech qanday sabab-bahonaga oʻrin qolmasligi uchun esa futbolchilar kuchli hamda poydevor mustahkam boʻlishi kerak. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-martdagi qarori bilan 2018-2022-yillarda futbolni yanada rivojlantirish dasturi qabul qilingan edi. Isteʼdodli yoshlarni tanlash, keyinchalik professional etib tayyorlash hamda milliy terma jamoalar zaxirasini yaratish maqsadida 14 ta hududda bolalar va oʻsmirlar futbol akademiyalari tashkil etildi. Mashgʻulot va musobaqalarda sifat oshdi. Murabbiylar, hakamlar va boshqa mutaxassislarga eʼtibor kuchaydi.

2019-yil 4-dekabrda Prezidentimiz “Oʻzbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi farmonni imzoladi. Unda klublar faoliyatini rivojlantirish, xalqaro darajadagi mutaxassislar tayyorlash, terma jamoalarning oʻquv-mashgʻulot jarayonini zamonaviy tashkil etish, mamlakatimizda nufuzli musobaqalar oʻtkazish maqsadlari belgilangan edi. 2023-yil 7-aprelda qabul qilingan ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishga oid Prezident qarori ham katta ahamiyatga ega boʻldi.

Bunday eʼtibor va tizim tufayli birin-ketin natijalar kela boshladi. 2018-yilda U-23 jamoamiz Xitoyda,

2023-yilda U-20 futbolchilarimiz Oʻzbekistonda oʻtgan musobaqalarda Osiyo chempionligini qoʻlga kiritdi. Yurtimizda FIFA va OFK dasturidagi turnirlarni oʻtkazish yoʻlga qoʻyildi.

2024-yilda oʻzbek futbolni rivojida yangi sahifa ochildi — 23 yoshgacha boʻlgan terma jamoamiz birinchi marta Olimpiya oʻyinlarida ishtirok etdi.

Yutuq va xursandchiliklar bu yil ham davom etmoqda. Yaqindagina, aprel oyida Caudiya Arabistonida oʻtgan musobaqada 17 yoshgacha boʻlgan oʻsmirlarimiz Osiyo kubogini qoʻlga kiritib, jahon chempionatiga yoʻllanma olgan edi. Mana endi asosiy terma jamoamiz ham yangi tarix yaratdi.

Oʻzbekiston ushbu 3-saralash bosqichining “A” guruhidan oʻrin olgan edi. Qariyb bir yil mobaynida Eron, Qatar, Birlashgan Arab Amirliklari, Qirgʻiziston, Shimoliy Koreya futbolchilari bilan bahs olib borildi. 5-iyun kuni oʻtgan BAA — Oʻzbekiston oʻyinida durang qayd etildi. Natijada 9-tur yakunlariga koʻra, terma jamoamiz ochkolari soni 18 taga yetdi va jahon chempionatiga chiqish kafolatlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shu munosabat bilan yoʻllagan tabrigida futbolchilarimiz chinakam jasorat va matonat namunasini koʻrsatib, xalqimiz orzusini roʻyobga chiqarganini taʼkidladi.

“Aminman, bu tarixiy yutuq xalqimizni egzu maqsadlar yoʻlida yanada birlashtiradi, ming-minglab yoshlarimiz uchun ilhom manbaiga, ibrat timsoliga aylanadi, Yangi Oʻzbekistonning xalqaro obroʻ-eʼtiborini yanada oshirishga xizmat qiladi”, dedi davlatimiz rahbari.

Chindan ham bu tarixiy voqea butun xalqimizni birlashtirdi, quvontirdi. Shu bois, soʻnggi turdagi Oʻzbekiston — Qatar oʻyini bayramga aylanib ketdi.

Uchrashuv oʻz jonkuyarlari oldida oʻynagan hamyurtlarimizning toʻliq ustunligida oʻtdi. Yakunda Oʻzbekiston 3:0 hisobida gʻalaba qozondi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 5-iyundagi farmoniga muvofiq, Vatanimiz tarixida birinchi marta jahon chempionati yoʻllanmasini qoʻlga kiritgani, yosh avlodni sportga mehr va milliy gʻurur ruhida tarbiyalashga qoʻshgan hissasi uchun futbol boʻyicha Oʻzbekiston milliy terma jamoasi aʼzolari va murabbiylaridan bir guruhi mukofotlangan edi. Oʻyindan keyin ushbu mukofotlarni topshirish marosimi boʻldi. Davlatimiz rahbari qahramon sportchilarimizga faxriy unvon, orden va medallarni topshirdi. Shuningdek, terma jamoamiz aʼzolari va mutaxassislarga BYD avtomobillari sovgʻa qilindi.

Prezidentimiz bilan oʻyinni Bolgariya Prezidenti Rumen Radev va Slovakiya Bosh vaziri Robert Fitso hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari hukumat rahbarlari birgalikda kuzatdi.

Futbol bayrami dronlar va mushaklar shousi bilan yakunlandi.

2026-yilgi jahon chempionati 11-iyundan 19-iyulgacha AQSH, Kanada va Meksikada boʻlib oʻtadi. 48 ta jamoa 12 ta guruhga boʻlinib, bahs olib boradi. Guruhlarda birinchi-ikkinchi oʻrinni egallaganlar hamda natijalari eng yaxshi 8 ta uchinchi oʻrin sohiblari keyingi bosqichga yoʻl oladi. Oʻzbekiston iftixori boʻlgan futbolchilarimizdan bu musobaqada ham yaxshi natijalar kutib qolamiz.

OʻZA

BALLI

Barakalla, yashil maydonga tushib, Uchqur otday javlon urganga balli! Boʻriday tashlanib, burgutday uchib, Arslonday qad kerib turganga balli!

Futbol bu — ayovsiz jangdir har oni, Goh oyoq, goh lozim yurak darmoni... Bir zumda aridi elning armoni, Baxtidan el baxti kulganga balli!

Kim maydonda yigʻlar, kimdir panada, Kim baxtli, kim baxtsiz boʻlgay yanada, Kutib ol, Meksika, AQSH, Kanada — Yoʻlni ummon osha burganga balli!

Tarixda qolishni xohlagan oʻgʻlon, Oʻzin ulugʻ ishga chogʻlagan oʻgʻlon, Sohobqiron ismin oqlagan oʻgʻlon — Gʻalaba zavqini surganga balli!

Raqiblar, biz taraf qarab qoʻyinglar, Oʻzbekning zarbasini darsga yoʻyinglar, Behuda siz bilgan gʻirrom oʻyinlar, Adolat kuchini koʻrganga balli!

Goh kulib, goh dili kuygan ishqiboz, Goh gʻurur, goh alam tuygan ishqiboz, Yurtini telba-dalli suygan ishqiboz — Vatan deb elma-el yurganga balli!

Davrim durdonasi bularning bari, Yetaklar har lahza shohsupa sari, Gʻamxoʻr murabbiydir millat sarvari — Yangi yurt, mamlakat qurganga balli!

Bu oddiy zafarmas — buyuk el yutdi, Mardona shijoat, tanti feʼl yutdi, Ona Oʻzbekiston, gʻoliblar yurti — Eng ulugʻ, eng koʻrkam qoʻrgʻonga balli!

Nodir JONUZOQ



Yangi Oʻzbekiston ruhi

QAHRAMON OʻGʻLONLAR YARATAYOTGAN YANGI TARIX BIZ BIR VA HAMJIHAT EKANMIZ, BU YOʻL BARDAVOM BOʻLAJAK!

Toshkent, 2025-yil 10-iyun. Oʻzbekiston terma jamoasi maydonga gʻolib sifatida kirib keldi. Odatda kim gʻolib, kim magʻlub ekani oʻyindan keyin maʼlum boʻladi. Bu safar hatto oʻyin qoidasi ham oʻzgardi. Futbolchilarimiz saralashdagi soʻnggi oʻyinga muqarrar gʻalaba shukhi bilan maydonga tushdi. Ha, hayotda oʻyin qoidalarini ham oʻzgartiradigan voqealar boʻlar ekan. Buni yangi Oʻzbekiston qahramonlari koʻrsatib qoʻydi...



Togʻlarning oʻsishi juda koʻp ilmiy bahslarga sabab boʻlgan murakkab jarayon. Ammo bir oʻzgarmas haqiqat bor, ular million, hatto milliard yillar davomida paydo boʻlgan. Hatto hozir ham asta-sekin oʻsib kelayotgan togʻlar bor. Ha, koʻz oʻngimizda shunday moʻjiza roʻy beryapti. Ammo uni doim ham payqaymaymiz. Vaqt oʻtishi bilan u yuksak choʻqqiga aylanadi. Oʻshanda odamlar uchun u ham odatdagi togʻlardan biri sifatida qabul qilinadi. Taraqqiyot yoʻli ham xuddi shunday. Bu haqida bir oz keyin toʻxtalamiz.

Gap shundaki, togʻ oʻsishiday inson aqli yetmaydigan murakkab jarayon ham oʻzining aniq formulasi ega ekaniga shubha yoʻq. Zero, oʻsish qaysi shaklda boʻlmasin, hech qachon oʻz-oʻzidan sodir boʻlmaydi. Hozirgi shukhli kunlarimizdan misol. Uzoq yillardan beri kutilgan quvunchli voqea sodir boʻldi. Oʻzbekiston terma jamoasi tarixda ilk bor futbol boʻyicha jahon chempionatiga yoʻllanma oldi.

Ushbu tarixiy voqeadan xalqimizning koʻngli togʻdek koʻtarilgani rost. Odatda koʻngilning togʻday oʻsishi uning balandligiga ishora qilib aytiladi. Bu oʻrinda mazkur ibora mubolagʻasiz maʼno ham kasb etmoqda. Yaʼni yangi Oʻzbekistonda xalqni rozi qilish yoʻlidagi oʻzgarishlarga nisbatan togʻdek ishonch boʻy koʻrsatdi. Bizni yagona vatan, bir butun xalq boʻlib yanada yangi marralar sari boshlaydigan ishonch, soʻnmas umid paydo boʻldi.

Darhaqiqat, jahon chempionatiga chiqish

shunchaki voqea emas. U chindan tarixiy va mamlakat taraqqiyoti uchun juda katta foyda keltiradigan quvunchli holat. Avvalo, futbol jamoaviy oʻyin. Uning taqdirini bir yoki ikki kishi hal qilmaydi. Unga muxlislik ham jamoaviylikni talab etadi. Umuman, futbol bor joyda kishi bilmas, xuddi togʻ oʻsishi kabi ahillik shakllanib boradi. Shu bois, uni millionlar oʻyini deyishadi.

Ehtimol, qaysidir mamlakatda boks yoki tennisning muxlisi topilmasligi mumkin. Ammo dunyoning istalgan hududida futbolga qiziqadigan minglab, millionlab odamlar topiladi. Ana shu qiziqish, muxlislik ularni birlashtiradi. Katta kuchga aylantiradi. Shu bois, mundialga yoʻllanma olgan mamlakatlar odatda uch kunlab toʻy beradi.

Qolaversa, masalaning iqtisodiy tomoni ham bor. Bunday mamlakatlarga turnirda qatnashish uchun tayyorlovdan boshlab guruh bosqich ishtiroki va keyingi bosqichlar uchun yaxshigina mukofot puli beriladi. Bundan tashqari, reklamadan daromad koʻrish, sayyohlarni mamlakatga jalb etish mumkin. Abduqodir misolida buning guvohi boʻldik. U “Manchester Siti”ga oʻtgach, dunyo boʻylab millionlagan muxlislarga ega boʻldi. Ular Abduqodirning 45 raqamli tushirilgan sport libosini sotib olyapti. Endi tasavvur qiling, butun boshli terma jamoamiz xuddi shunday muxlis toʻplasa-chi!

Ha, Oʻzbekiston uchun jahon chempionatiga chiqish sportdagi katta gʻalaba bilan birga yirik

iqtisodiy foyda ham keltiradi. Natijada xalqaro maydonda mamlakatimiz imiji yanada oʻsadi. Muhimi, xalqimiz bugungi oʻzgarishlar yuksak natija koʻrsata boshlaganiga yana bir karra amin boʻldi. Yuqorida taʼkidlaganimizdek, ishonch togʻi yuksaldi.

Shu oʻrinda savol tugʻiladi. Bunga qanday erishdik? Bu savolga birdaniga javob berishga bir oz qiyalishimiz mumkin. Zero, yuqorida aytganimizdek, koʻz oʻngimizda togʻ yuksalib kelayotgan edi. Uni koʻrib-bilib tursak-da, bu qadar tez yuksalishini, ochigʻi, bilmas, tasavvur ham qila olmasdik. Yodimda, 2018-yil 27-yanvar kuni Oʻzbekistonning 23 yoshgacha boʻlgan terma jamoasi Osiyo chempioni boʻlgan edi. Qor qoplagan stadionda Oʻzbekistonning oddiy oiladan chiqqan, chinakam isteʼdodiga qarab saralab olingan oʻgʻlonlari qahramonlik koʻrsatgandi. Hamma sir ana shunda. Yaʼni tanish-bilishchilikka barham berib, futbolda adolat oʻrnatilganida edi.

Davlatimiz rahbari oʻshanda: “Agar adolat boʻlsa, korupsiyaga yoʻl qoʻyilmasa, qanday natijaga erishish mumkinligini mana shu futbol koʻrsatdi!” degandi. Bugun bemalol ayta olamizki, adolat barqaror boʻlsa, boshlangan ishlar ortga qaytmas tus olsa, natija qay darajada tez yuksalishini jahon chempionati uchun qoʻlga kiritilgan yoʻllanma koʻrsatdi.

Prezidentimizning oʻzi sportning bosh menejeri boʻldi. Futbol turli “oʻyin”lardan tozalandi. Sohaga fidoyi, islohotlarni teran his etadigan masʼullar jalb etildi. Davlatimiz rahbari bir necha marotaba FIFA rahbariyati bilan uchrashuvlar oʻtkazdi. Umuman, soha rivoji uchun bajarilishi kerak boʻlgan barcha ishlar tizimli va uzoq istiqbolli tarzda tashkil etildi.

Bular xuddi togʻ oʻsishiga sabab boʻladigan



tabiiy jarayonlar kabi koʻz oʻngimizda sodir boʻldi. Shu jarayonda soha mutaxassisi boʻlgan kishilar oʻzining ilmiy nigohi ila oʻzbek futbolni degan ulkan togʻ oʻsib kelayotganini payqagan edi.

Quvonarlisi, futboldagi ushbu oʻzgarishlarni mamlakatimizdagi istalgan sohaga qiyos etsa boʻladi. Chunki keyingi yillarda mamlakatimiz keng koʻlamli islohotlar maydoniga aylangan rost. Bir vaqtlar biz uchun juda murakkab koʻringan koʻplab masalalarga yechim berildi. Oddiygina bugun hech bir qiyinchiliksiz plastik kartamizdagi pulni naqd qilib olamiz. Buning uchun bank xizmatiga 1 foiz haq olinadi. Bir paytlar pulni naqdlashtirish, doʻkonda kartadan savdo qilish uchun kamida 15 foiz ortiqcha pul sarflashga majbur edik. Bu pullar kimningdir choʻntagiga ketardi. Yaʼni korupsiyaga, adolatsizlikning bitta qiyofasi koʻzimizga kartadagi pullar orqali koʻrinardi.

Ishdan uyga qaytayotib qoʻshnimning

mashinasiga chiqdim. Allaqachon pensiya yoshidagi Ilyos aka taksichilik qilmasdi.

— Ishlamayapsizmi? — dedim tumandagi “Tez yordam” haydovchisi boʻlgan qoʻshnimni soʻroqqa tutib.

— Oʻtitiz yildan koʻp bir joyda ishladim, endi dam olaylik, yoshlar ishlasin, — deydi qoʻshnim. Qiziqishim ustun kelib, oʻsha zamonlarda qanday ishlagani haqida soʻrayman.

— Bir kunda nechta chaqiruvga chiqar edingizlar?

— Bitta yo ikkita chaqiruvga borardik. Bir kunga 5 litr benzin berilardi. Bu bilan qayerga borardik?! Shuning uchun chaqiruv boʻlsa, benzin soʻrardik. Kasal odamga benzin axtargandan koʻra, taksi chaqirib kelish oson edi-da. Benzin ham, dori-darmon ham yoʻq edi. Shuning uchun ishda haydovchilik emas, ustachilik, faroshilik qilardik. Gohida kunni soyalab oʻtkazardik.

— Hozir-chi?!

— Chaqiruv koʻp. Benzin berilyapti, dori-darmon bor. Baʼzi odamlar bir kunda uch martalab chaqiradi.

Bu oʻylab topilgan voqea emas. Kechagi va bugungi kunimiz oʻrtasidagi bunday farqni barchamiz yaxshi bilamiz. Yodingizda boʻlsa, tez tabiiy yordam tizimi qanday ishlashini davlatimiz rahbarining shaxsan oʻzi tekshirib koʻrgan, holatni tubdan bilgani bois, ilk kunlardanoq sohani isloh qilishga kirishgan edi.

Xuddi futboldagi holat, ilk qadamlar yodingizga tushdimi?! Endi har soha boʻyicha mana shunday tahlil qilib koʻring. Soʻng ushbu islohotlar izchil davom etayotganini hisobga olib, kelajak haqida oʻylang. Koʻryapsizmi, katta yoʻlga chiqqan yangi Oʻzbekiston kecha qayerda edi, bugun qay manzilga yetdi. Ertangi kunimiz esa bundan ham yorugʻ boʻladi. Zero, yurtimizdagi islohotlar inson qadrini ulugʻlashga qaratilgan. Bunday oʻzgarishlar ijobiy natijalar sari boshlashi shubhasiz...

Shularhaqida oʻylab, “Bunyodkor” stadionida kechgan Oʻzbekiston — Qatar terma jamoalari bahsini kuzatib ekanman, sharhlovchining “Goh!!!” degan hayqirigʻidan hushyor tortdim. Oʻyinda terma jamoamiz hisobni ochdi. Aziz Turgʻunboyev raqib darvozasini aniq moʻljalga oldi.



Bu gol shunchaki hisob emas. U uzoq muddat davom etgan mashaqqatli mehnat samarasi. Ayni paytda yuqorida bot-bot takror aytganimiz — ISHONCHning amaliy ifodasi. BAAdagi oʻyin oldi boʻlgan bosimlarni eslang. Bir oz avval yoshlar terma jamoasi misolida ular oʻzbek futbolni tubdan oʻzgariganini, oʻyinchilar muxlislari — xalqimizning olqishidan cheksiz quvvat olishini teran anglagandi. Shu bois, ular oʻyin ichidagi “oʻyin”larga zoʻr berdi. Quvonarlisi, oʻyin ishonchli gʻalaba bilan yakunlandi: Eldor Shomurodov ikkinchi boʻlim oxirlarida hisobni 2:0 koʻrinishiga keltirgan boʻlsa, Igor Sergeyev qoʻshimcha daqiqlarda, zaxiradan maydonga tushishi hamonogʻ birinchi toʻpga teginishini gol bilan yakunlab, oʻyinga nuqta qoʻydi — 3:0. Ayni dam muxlislar qoʻllovidan oladigan quvvat oʻz kuchini koʻrsatdi...

Shu kunlarda toʻrtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi boʻlib oʻtmoqda. Unda davlatimiz rahbari nutq soʻzlab, shunday dedi: “Investitsiyalar — faqat iqtisodiy taraqqiyotning emas, balki tinchlik va barqarorlikning kafolatidir!”.

Ha, biz tanlagan yoʻl — butun dunyo tinch boʻlsin, mamlakatlar yetakchilari har qanday kelishmovchilikni teng huquqiy asosga ega diplomatik muloqotlar orqali hal etishi kerak degan hayotbaxsh chaqiriqqa asoslangan. Aynan shu bois, bugun futbolchilarimiz gʻolib boʻlsa, butun Markaziy Osiyo xalqlari birdek quvonyapti. Yurtdoshlarimiz bir boʻlsak yagona xalq, bitta vatan ekanimizni yurakdan his etib yashayapti. Bunga koʻchalarni toʻldirib bayram qilgan xalqimiz misolida yana bir bor guvoh boʻldik. Ular tashqaridan qaraganda futbolchilarimizni qoʻllab-quvvatlad. Ammo bu olqishlar zamirida davlatimiz rahbari boshlagan islohotlarga ishonch bor. Ha, mundial yoʻllanmasi bizga mana shunday hayotiy haqiqatlarni anglash imkonini berdi. Shu bilan birga, qalbmizga cheksiz faxr tuygʻusini joʻsh urdirdi. Bu faxrni shoir doʻstimiz Zohidjon Olov quyidagicha izhor qildi:

“Xayr, ey natomat, xayr, ey alam!
Oʻtirt toʻr yil kutdik bu kunni mahtal —
Nihoyat! Ushaldi bizning orzu ham!
Salom, katta futbol, salom Mundial!”.

Bugun qancha faxrlansak, qanday katta bayram qilsak arziydi. Zero, olis va yorugʻ manzil sari yoʻlga chiqqan katta karvon maʼlum manzilga yetgach, mana shu tarzda quvvat oladi. Soʻng yanchiga kuch va shukuh bilan yana yoʻlda davom etadi.

Prezidentimiz terma jamoamizga yoʻllagan tabrigida: “Sizlar futbol maydonlaridagi mana shunday shonli yutuqdan yangi kuch va ruh olib, kelgusi yili AQSH, Meksika va Kanada davlatlarida boʻlib oʻtadigan Jahon chempionatida nafaqat Oʻzbekiston, balki butun Markaziy Osiyoning birinchi va yagona vakili boʻlishdek yuksak sharafni chuqur his etgan holda yanada katta jonbozlik koʻrsatasizlar, deb ishonaman”, degan edi. Bu oʻsha biz aytmoqchi boʻlgan oldindagi yoʻldir. Uning yorugʻ va esda qolarli voqealarga boy boʻlishiga ishonamiz!

Boboravshan GʻOZIDDINOV,
“Yangi Oʻzbekiston” muxbiri



TASHKENT
INTERNATIONAL
INVESTMENT
FORUM



Xalqaro forum

JAMIYAT

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz



DUNYONING YIRIK INVESTOR VA ISHBILARMONLARI O‘ZBEKISTONDA



Poytaxtimiz ko‘chalarida bugun bayroqlar odatdagidan ko‘proq. Davlatimiz bayrog‘i bilan yonma-yon hilpirab turgan boshqa bayroqlar mamlakatimizning nufuzli mehmonlarni kutib olayotganiga ishora. Ularни yurtimiz hayotidagi eng muhim tadbirlardan biri — IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi yana bir bor azim shahrimizga chorladi. Joriy haftaning asosiy voqeasiga aylangan mazkur tadbirda qariyb 100 mamlakatdan 3000 ga yaqin mehmon, xususan, yetakchi investorlar, hukumat va moliya institutlari vakillari hamda biznes egalari ishtirok etmoqda.

Nufuzli forum yurtimizda to‘rtinchi bor o‘tkazilmoqda. Bu yilgisi ishtirokchilar soni, mavzu va loyihalar qamrovi jihatidan ancha keng.

Davlatimiz rahbari forumda so‘zlagan nutqida tadbir qatnashchilariga alohida minnatdorlik bildirib, “Keling, birgalikda shunday investitsiya muhitini yarataylikki, u daromad keltirish bilan birga, inson qadrini ulug‘laydigan, uning hayotiy manfaatlarini ta‘minlaydigan va jamiyat ravnaqiga xizmat qiladigan mustahkam poydevorga aylansin!”, dedi.

Xorijliklarning aksariyati Toshkent xalqaro investitsiya forumida avval ham ishtirok etgan. Qatnashchilar tadbir yil sayin yuqori darajaga ko‘tarilayotgani, ko‘lami kengayib borayotganini e‘tirof etmoqda. Muhokama qilinayotgan mavzular, o‘rtaga tashlanayotgan masalalar ham yangiligi, dolzarbligi bilan mehmonlar e‘tiborini tortmoqda. Buni forum kun tartibidan ham ko‘rish mumkin.

Turli davlatlardan kelgan delegatlar forum doirasidagi muloqot va uchrashuvlarda ma‘ruza qilyapti. Xalqaro mutaxassislar bir platformada jam bo‘lib, mintaqaning barqaror iqtisodiy rivojiga xizmat qiluvchi muhim loyiha

va hamkorlik tashabbuslarini muhokama qilmoqda. Mamlakatimiz uchun ustuvor hisoblangan sanoatni modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni raqamlashtirish, barqaror taraqqiyot tamoyillarini ilgari surish, mintaqaviy savdo aloqalarini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqilmoqda. Taklif va tashabbuslar shunchaki bildirilmaydi, muloqotlar chog‘ida ular yangi loyihalar, hamkorlik kelishuvlariga asos bo‘ladi. Masalan, investitsiya forumi tadbirlaridan birida Slovakiya bosh vaziri Robert Fitso endi o‘zbekistonliklarning Slovakiyaga borib ishlashi yanada osonlashishi haqida gapirdi.

— 2024-yilda Slovakiyaning Toshkentdagi elchixonasi deyarli 3000 ta mehnat vizasi bergan, bu avvalgi yilga nisbatan uch barobar ko‘p, — dedi Robert Fitso. — Biz O‘zbekiston hukumati bilan viza tartib-taomillarini soddalashtirish, huquqiy, axloqiy va o‘zaro manfaatli mehnat faoliyatini ta‘minlash bo‘yicha ishlayapmiz. Boisi, iqtisodiy sheriklik nafaqat tovar va kapital, balki odamlarga ham bog‘liq. O‘zbekiston 2025-yilda xorijga 200 minggaacha mehnat muhojirini jo‘natishni rejalashtirmoqda. Bu Slovakiyaning malakali va ishonchli ishchi kuchiga bo‘lgan manfaatlariga mos keladi.

ILK INVESTITSIYA KO‘RGAZMASI

Odatda Toshkent xalqaro investitsiya forumi chet ellik ishbilarmonlarning mamlakatimiz iqtisodiy imkoniyatlari bilan tanishuvi, mahalliy korxonalar vakillari bilan muloqot qilib, hamkorlik o‘rnatishi uchun sharoit yaratadi, faol platformaga aylanadi. Joriy yilda esa xorijlik mehmonlarni bevosita milliy mahsulotlarimiz bilan tanishtirish maqsad qilingan. Buning uchun forum doirasida ilk marotaba Milliy investitsiya ko‘rgazmasi tashkil etildi. Unda yurtimizda tez rivojlanayotgan neft-kimyo, mashinasozlik, qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash kabi 10 dan ortiq sohada faoliyat yuritayotgan 90 dan ziyod mahalliy korxona mahsulotlari bilan ishtirok etmoqda.



“Yangi O‘zbekiston” bog‘i tomon ketaverishda yana o‘sha hilpirab turgan bayroqlar e‘tibori tortadi. Ular orasida IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi ramzi tushirilgani ham bor. Har biri mehmonlarni poytaxtimizdagi CAEX ko‘rgazmalar majmuasiga yo‘naltirayotgandek. Boisi, investitsiya ko‘rgazmasi ayni shu manzilda bo‘lib o‘tmoqda. Tadbir tufayli majmua o‘ziga xos ko‘rinishda, ishtirokchi va mehmonlar bilan gavjum. Mezbonlar esa o‘zimizning mahalliy sanoat korxonalari. Ular keng-mo‘l ko‘rgazma maydonida milliy brendimiz ostida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni namoyish etmoqda.

Elektrotexnika mahsulotlari pavilyoniga ko‘zimiz tushganida “Yaqin yillargacha yurtimizda ishlab chiqarilgan maishiy texnikalarni o‘zimiz ham mensimasdik. Sifati talabimizga javob bermasdi. Buni qarangki, oxirgi yillarda ushbu soha juda tez rivojlandi. Hozir har birimizning uyimizda milliy texnika mahsuloti bor”, degan fikr xayoldan o‘tdi. Bugun milliy brenddagi mahsulotlar xorij bozorida ommalashib bormoqda. Qator jihatlar ushbu tarmoqqa qiziquvchi investorlarni keng jalb etyapti.

— Elektrotexnika sanoati rivojlanib, mamlakatimiz iqtisodiyotining drayveriga aylanishi oson kechmadi, — deydi “O‘zeltexsanoat” uyushmasi matbuot kotibi Namoz Tolipov. — Mahalliy korxonalar bozor topishga juda qiyналgan, boshqa muammolar ham ko‘p edi. Keyinroq davlatimiz tashabbusi bilan tarmoq qo‘llab-quvvatlanib, mutlaqo yangi bosqichga olib chiqildi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga huquqiy hujjatlar asosida ko‘plab imtiyoz va imkoniyatlar berildi. Tadbirkorlar xalqaro bozorga chiqa boshlagach, xorij amaliyotini o‘rganib, raqobatbardosh, jahon standartlariga mos, talab yuqori elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi. Davlat berayotgan imtiyozlar korxonalarni yanada rag‘batlantiryapti, eksport imkoniyatini kengaytirmoqda. Masalan, hozir davlat kompensatsiya asosida mahsulotlarni xalqaro ko‘rgazmalarga bepul yetkazib beradi. Xalqaro sifat sertifikatlarini olishda ham xarajatlarni qoplab bermoqda.

Bugun tarmoqda 500 dan ortiq korxona faoliyat yuritaypti. Oxirgi 5-6 yilda ishlab chiqarish hajmi qariyb 8 barobar oshgan. O‘tgan yili 30 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo‘lsa, bu yil ushbu ko‘rsatkichni 40 trillion so‘mga yetkazish ko‘zlangan. Ana shu o‘shig‘ sur‘ati ham investorlarni jalb qilyapti. Xususan, o‘tgan yili tarmoqqa 200 million dollarga yaqin investitsiya kiritilgan bo‘lsa, joriy yilda ushbu summani yanada oshirish maqsad qilingan. Qiymati 1,7 milliard dollarlik mahsulotni eksport qilish ko‘zda tutilgan. Boisi, xorijda mahsulotlarimizga talab oshgan. Bundan 5 yil oldin elektrotexnika korxonalari 10-15 ta davlatga mahsulot eksport qilgan bo‘lsa, o‘tgan yildan boshlab 72 ta davlatga tovar yuboryapmiz.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida ilk bor o‘tkazilayotgan milliy ko‘rgazma mahalliy korxonalarga yangi investorlar, potensial hamkorlar topish imkonini beradi. Ko‘rgazmada “O‘zeltexsanoat” uyushmasiga a‘zo 10 dan ortiq korxona qariyb 200 turdagi mahsuloti bilan ishtirok etyapti. Ularning yangi loyihalari investorlarga taqdim etilmoqda. O‘zaro muzokaralarda qo‘shma loyihalar haqida so‘z boryapti. Ko‘rgazmada nafaqat poytaxt yoki unga yaqin hududlar, balki yurtimizning eng chekka joylarida faoliyat yuritayotgan korxonalar ham qatnashmoqda. Ularning ayrimlari faoliyatini yaqinda boshlaganiga qaramay, allaqachon Yevropa, okeanorti mamlakatlari bozoriga chiqqan. Bu ham mahalliy korxonalarning imkoniyatini, salohiyatini namoyon etadi.

Xorijning ko‘rgazmada ishtirok etayotgan gigant kompaniyalari, yirik biznes vakillari ana shu jihatlariga bevosita guvoh bo‘lib, ishonch bildirsa, yanada manfaatli hamkorlik aloqalari o‘rnatiladi.

Bekzod SOLIXOV, “Fonon” zargarlik korxonasi tijorat direktori:

— O‘zbekistonning zargarlik sanoatidagi korxonalar avval faqat xomashyo eksport qilgan. Ishlab chiqarish quvvati deyarli yo‘q edi. Keyingi yillarda ushbu yo‘nalishda ko‘plab imtiyozlar berilishi natijasida endi biz ham xomashyodan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaryapmiz. Avvallari xorijdan import qilingan zargarlik buyumlarining barcha turi bugun yurtimizda ishlab chiqarilyapti. Ayniqsa, xotin-qizlar qiziqadigan davlatlarning tilla taqinchoqlari ham sifat jihatidan kam bo‘lmagan holda zavodimizda tayyorlanadi. Hatto mahsulotlarimizni qo‘shni davlatlardan tashqari AQSH, BAAga ham eksport qilyapmiz.



“Fonon” zargarlik korxonasi Prezidentimiz tashabbusi bilan 2021-yilda ishga tushirilgan edi. Qisqa muddatda korxona milliy brend sifatida nom



XORIJLIK SARMOYADORLARNI NIMA JALB QILYAPTI?

Xorijlik investorlar bilan suhbatlashish asosida ko‘pchiligi allaqachon yurtimizdagi biror sohaga sarmoya kiritgani, ancha yillik hamkorlarimizdan ekanini ma‘lum bo‘ldi. Ilk bor mamlakatimizga kelayotgan ishbilarmonlar esa ular bilan suhbatlashib, imkoniyatlar haqida eshitar ekan, investitsiya kiritishga qiziqishi yanada oshmoqda.

Robin BATLER, Londondagi “Sturgeon Capital” ventchur fondi direktori:

— Korxonamiz IT sohasidagi startap loyihalarga sarmoya kiritadi. Zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq loyihalarni qo‘llab-quvvatlash, shu yo‘nalishdagi g‘oyalarni amaliyotga joriy etish faoliyatimizning asosiy yo‘nalishi. 2012-yildan buyon faoliyat yuritamiz. Doim mamlakatlarni o‘rganib, eng ilg‘or startaplarni topish va moliyalashtirishga intilamiz. O‘tgan yili loyihalar uchun jami 55 million dollar investitsiya kiritdik.

O‘zbekiston bilan hamkorligimiz 2019-yildan beri davom etyapti. Bugunga qadar mamlakatdagi qator loyihalar uchun 13 million dollar investitsiya kiritdik. Masalan, “Arzon Apteka” loyihasini moliyalashtirish uchun 1,5 million dollar yo‘naltirganimiz. Investitsiya kiritish uchun O‘zbekistonni tanlashimizning bir necha sababi bor. Birinchidan, mamlakat aholisining katta qismi yoshlardan iborat. Bu yerda yosh avlod vakillari ko‘p. Ular ilg‘or fikrli, zamonaviy texnologiyalarni yaxshi tushunadi. Qolaversa, intellektual jihatdan ham yurtimizda juda tez o‘shig‘ kuzatilyapti. Odamlarda bilim olish, axborot texnologiyalarini o‘rganish, zamonaviy kasblarni egallashga qiziqish yuqori. Buning hisobiga onlayn xizmatlar, sohalar rivojlanmoqda. Barchasi IT texnologiyalari bilan

Joriy yil Toshkent xalqaro investitsiya forumi energetika, infratuzilma, qishloq xo‘jaligi, konchilik, raqamli texnologiyalar va boshqa strategik yo‘nalishlarda umumiy qiymati 30 milliard dollardan ziyod istiqbolli loyihalarni taqdim etadi. Ularning har biri puxta o‘ylangan, aniq natijalarga olib boradigan loyihalar. Chet ellik hamkorlarni



bevosita bog‘liq. Ana bu yo‘nalishda boshqa davlatlar ancha ilg‘or bo‘lsa-da, O‘zbekiston yaqin yillarda ularga yetib oladi.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi O‘zbekistonning barcha sohadagi imkoniyatini yaqqol ko‘rsatadi. Shuning uchun unda ishtirok etayotgan investorlar, yirik kompaniya vakillari, ishbilarmonlar nihoyatda ko‘p. Ularning aksari hamkorlik istagida kelgan. Garchi korxonamiz anchadan buyon bu yerda faoliyat yuritayotgan bo‘lsa-da, investitsiya ko‘rgazmasida yangi hamkorlar topishni maqsad qilganmiz. Olti yildan beri ishlab, shu yerda mahalliy hamkorlar topishimiz mumkinligiga amin bo‘ldik. Boisi, chetdan turib investitsiya kiritish ancha qiyin. Mamlakatning o‘ziga xos muhiti, alohida jihatlar bor. Bularni tushunadigan, yaxshi biladigan yirik mahalliy korxonalarni topib, ular bilan ishlash orqali xato qilmaslikka intilyapmiz.

Tetsuro YAMASAKA, Yaponiyadagi “Balcom Group” kompaniyasi direktorlar kengashi raisi:

— O‘zbekistonda ilk bor 2019-yilda ish boshlaganimiz. “Balcom.uz” korxonasini tashkil qildik. Yurtimizga ilk kelganimdayoq mehrim tushgan. Odamlarning mehnatsevarligi, ishga jiddiy yondashuvi va oilaparvarligi yaponlarning qadriyatlariga juda o‘xshash. Ana shu jihatlar e‘tiborimni tortadi va doim O‘zbekistonga mamnuniyat bilan kelaman.

Kompaniyamiz restoranlar, ko‘chmas mulk qurish yo‘nalishida faoliyat yuritadi. Singapur, Xitoy, Vetnam, Indoneziya kabi davlatlar bilan hamkorlikda ishlaymiz. Ular qatorida O‘zbekiston ham borligi bejiz emas. Chunki mamlakatimiz keyingi yillarda juda tez rivojlanayotgan davlat sifatida ko‘plab investorlar diqqatini tortyapti.

IV Toshkent xalqaro investitsiya forumiga kelgan ishbilarmonlarning nufuzi ham buning yaqqol isboti. Biz o‘zaro muloqot o‘tkazib, tajriba almashib, dolzarb mavzularda ma‘ruzalar qilyapmiz yoki tinglayapmiz. Xullas, Toshkent shahri dunyoning katta-katta investorlarini bir maydonda to‘pladi va bu biz uchun ham o‘ziga xos platforma.

Asosiysi, mamlakatga kirib kelgan investor tez ketish haqida emas, yangidan yangi loyihalarni amalga oshirish haqida o‘ylayapti. Kompaniyamiz ham bugungacha turli yo‘nalishdagi bizneslarni muvaffaqiyatli

qozondi. Sababi biz o‘rtacha darajadagi ishlab chiqarishdan yuqori texnologiyali, xalqaro standartlarga mos quvvatga o‘tdik. Ish boshlagan vaqtimizdayoq shartnoma asosida italiyalik mutaxassislarni olib kelib, ustoz-shogird an‘anasi asosida mahalliy zargarlarga eng so‘nggi Yevropa texnologiyasi o‘rgatildi. Bugun zavoddagi ishlab chiqarish quvvati to‘liq Italiya texnologiyasiga asoslangan. Xorij modellari dazaynlar ham o‘zimizda tayyorlanadi. Xomashyo ham, ishlab chiqarish ham to‘liq o‘zimizda.

Zavodimiz juda yirik ko‘limga ega. Shu yo‘nalishda Markaziy Osiyodagi eng katta korxona. Zavodda 400 dan ortiq odam ishlaydi. Mahsulotlar assortimentiga qimmatbaho toshlardan ishlangan zargarlik buyumlari ham qo‘shilgan. Hozir zavodning yillik ishlab chiqarish quvvati 6 tonnani tashkil qiladi. Yurtimiz bo‘ylab 20 ta rasmiy do‘konimiz mavjud. Shundan 5 tasi Toshkent shahrida, qolgan viloyatlarda joylashgan.


Kelgusida “Fonon” brendini jahonning eng yetakchi brendlari qatoriga olib chiqishni maqsad qilganmiz. Buning uchun chet elda rasmiy do‘konlarimizni ochishni rejalashtirganimiz. Bu borada xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik katta ahamiyatga ega. IV Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida shu masalada muloqotlar olib boryapmiz. Forumda ko‘plab investorlar ishtirok etyapti. Bu bizniki kabi korxonalar uchun katta imkoniyat. Boisi, o‘zimiz hamkorlarni izlasak, ko‘p vaqt, ortiqcha yugur-yugur talab etiladi. Muloqotlar onlayn amalga oshirilgan taqdirda ham kelishuvga erishish vaqt oladi. Investitsiya forumida esa ko‘plab investorlar, jahonning ko‘zga ko‘ringan ishbilarmonlari bir joyda to‘plandi. Ular bilan hech qanday to‘siqlarsiz, yuzma-yuz muloqot qilib, takliflarimizni bildirypapmiz.

qiziqtirayotgan jihat ham shunda — O‘zbekistonda yuqori darajadagi investitsiya muhiti yaratilgani va mahalliy korxonalarning bunga tayyorligi har jihatdan namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, yurtimizda barcha soha keng rivojlanib borayotgani yuqori qiymatdagi investitsiyalarni jalb qilishga sharoit yaratmoqda.



amalga oshirib kelyapti. Restoran, ko‘chmas mulk obyektlarini qurishdan tashqari IT yo‘nalishidagi loyihalarni moliyalashtiryapmiz. O‘g‘it ishlab chiqaradigan “Ifoda Agro Kimyo Himoya” kompaniyasiga ham 10 million dollar investitsiya kiritganimiz. 2021-yili mamlakatimizda O‘zbekiston — Yaponiya iqtisodiyot, sport, madaniyat assotsiatsiyasi tashkil qilingandi. Ayni paytda ana shu tashkilot raisi hamda o‘tgan yildan boshlab Yaponiyaning qator hududlarida O‘zbekistonning faxriy konsuli sifatida faoliyat yuritapman. Yaponiyada O‘zbekiston madaniyatini, bu yerda esa Yaponiya madaniyatini targ‘ib qiladigan ko‘plab tadbirlar tashkil qilmiz. Maqsadimiz ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni har tomonlama rivojlantirishdan iborat.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz

Til — millat ko‘zgusi

AMALIY FILOLOGIYA: FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRARISH INTEGRATSIYASI

Filologiyaning tobora ommalashib borayotgan yo‘nalishi — amaliy filologiya til va adabiyot nazariyasidan tashqari tilni bevosita kundalik hayotda, turli ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarda qo‘llash masalalariga e‘tibor qaratadi. An‘anaviy tilshunoslik tilning ichki qurilishi, grammatik tuzilishi, fonetik xususiyatlari, leksik boyligi, adabiy mezonlar kabi nazariy masalalarni o‘rganish bilan cheklansa, amaliy tilshunoslik ushbu nazariy bazani hayotiy voqeelikka tatbiq etish, til resurslarini real sohalar uchun amaliy qiymatga aylantirishga urg‘u beradi.



Baxtiyor MENGLIYEV,
filologiya fanlari doktori,
professor

Amaliy filologiya millatning til boyliklarini, jumladan, so‘zlashuv, rasmiy hujjatlar, yozma va reklama matnlari, ommaviy axborot vositalari tili, veb-saytlar, huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar kabilarni tahlil, tahrir qilish, zarur holda til siyosatini takomillashtirishga oid takliflar berish, lingvistik ekspertiza o‘tkazish, terminologiya yaratish va boshqalarga ko‘rinadi. Shu bois, davr talablariga mos holda filologiya doirasida faqat nazariy g‘oyalari emas, balki amaliy ishlar ham katta ahamiyat kasb etmoqda.



Hozirgi kunda dunyoning ilg‘or universitetlarida filologiya fanlari bo‘yicha nafaqat nazariy tadqiqotlar o‘tkaziladi, balki yirik korxonalar, axborot texnologiyalari kompaniyalari bilan hamkorlikda turli amaliy loyihalar bajariladi. Masalan, tabiiy tilni tushunish (Natural Language Understanding), nutqni avtomatik tanish (ASR — Automatic Speech Recognition), mashina tarjimasini (Machine Translation), matnini qayta ishlash (NLP — Natural Language Processing) bo‘yicha tadqiqotlar amaliy filologiyani IT soha bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ham yirik IT kompaniyalar yoki davlat muassasalarida bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilsa, albatta, bu soha tez rivojlanadi, davlat tili haqidagi qonunning ijrosi yanada mustahkamlanadi. Masalan, “O‘zbek tili korpusi”ni yaratish, lug‘atlar bazasini kengaytirish, chat botlar tilini muvofiqlashtirish, matnini avtomatik tahrir qiladigan dasturlar ishlab chiqish orqali davlat idoralari ishini yengillashtirish, fuqarolar uchun o‘zbek tilida xizmat ko‘rsatishni qulaylashtirish mumkin.

Tilni rivojlantirish shunchaki texnik yoki rasmiy masala emas, balki chuqur ijtimoiy va ma‘naviy ahamiyatga ega jarayon. Agar fuqaro o‘z tilida ravon, to‘g‘ri va mazmunli gapirish, fikrini aniq ifoda etish, hujjat tuzish, e‘lonlar

yo‘zish, hatto ilmiy ishini o‘z ona tilida bitish imkoniyatiga ega bo‘lsa, bu millatning ma‘naviy darajasi, vatanparvarlik hissi yuksaladi. Amaliy filologiya aynan shu jihatga ham xizmat qiladi — milliy til me‘yorlarini mustahkamlash, har bir soha uchun nozik tomonlarini taqdim etish orqali xalqda faxr, g‘urur, mas‘uliyat tuyg‘ularini tarbiyalaydi.

Oliy ta‘lim muassasalarida filologiyani amaliy yo‘nalishini rasmiy ravishda joriy etish masalasi juda muhim. Chunki amaliy filolog bo‘lish uchun, avvalo, til nazariyasidan xabardor bo‘lish lozim. Grammatik qonun-qoidalar, leksik sath, fonetika va fonologiya, morfologiya, sintaksis, stilistika asoslarini puxta o‘rganmasdan turib, amaliy sohada ishlash qiyin. Ikkinchidan, amaliy ko‘nikmalar kerak. Faqat nazariy bilimlar emas, balki real hujjatlar, rasmiy ish yuritish, turli matnlarni tahrir qilish, lisoniy ekspertiza, reklama matni tuzish, marketing sohasiga oid o‘ziga xos stilistika, ko‘ptillilik sharoitida tarjima, lug‘atchilik, elektron formatlarda ishlash uchun sinf (laboratoriya) darajasida ham mashq qilish lozim.

Uchinchidan, metodika va tadqiqot usullari zarur. Amaliy filolog ta‘lim muassasasini bitirgach, bo‘sh ish o‘rinlari bo‘yicha nafaqat o‘qituvchilik yoki ilmiy xodimlik, balki turli idoralar, nashriyotlar, axborot agentliklarida

faoliyat yuritish zarur. Shuning uchun metodik yondashuvlar, matn tuzish texnologiyalari, dizayn va reklama, PR sohalari bilan ham tanish bo‘lishi lozim.

Bugungi kungacha O‘zbekistonda filologiya fanlaridan ko‘plab dissertatsiyalar himoya qilindi. Ammo ularning aksariyati an‘anaviy mavzular, masalan, biror adib ijodida leksik-semantik xususiyatlarni o‘rganish, grammatik qiyosiy tahlil va hokazolar atrofida bo‘lgan. Amaliy filologiya mavzusida esa juda kam, deyarli sanoqli ishlar bor, xolos. Kelajakda bu mavzuda himoya qilinadigan dissertatsiyalar quyidagi sohalarni qamrab olishi kerak.

tiliga tarjima qilishda atamalar muammosi”, “Amaliy filologiya nuqtayi nazaridan badiiy tarjimaning xususiyatlari” va boshqalar.

Lingvistik ekspertiza metodikasi: “O‘zbek tilidagi matnlarda haqorat va tahdid ifodalarini aniqlash usullari”, “Sud lingvistikasida matn psixologik tahlilining o‘rni” va hokazolar.

Bunday mavzulardagi izlanishlar, bir tomondan, jamiyatga real foyda keltirsa, ikkinchi tomondan, davlat tili haqidagi qonun ijrosi uchun nazariy va amaliy ko‘mak bo‘ladi.

Shu o‘rinda bu boradagi xorij tajribasidan misollar keltirish mumkin. Masalan, Rossiyada 1990-yillardayoq sud lingvistikasi



Sud lingvistikasi: “O‘zbek sud nutq amaliyoti tilining xususiyatlari”, “Huquqiy hujjatlar tili va uslubi” va shu kabi mavzular.

Reklama va marketing tili: “O‘zbek tilida reklamaviy matn yaratish usullari”, “Ijtimoiy reklamalar lingvistik xususiyatlari” va hokazolar.

Elektron matnlar tili: “Internet nashrlarida o‘zbek tilining qo‘llanilishi: amaliy tahlil va takomillashtirish istiqbollari”, “Chat botlar nutqining lisoniy modellari” singari mavzular.

Tarjima jarayonlari: “Ilmiy matnlarni o‘zbek

amaliyoti shakllangan. Ayrim universitetlar yurislingvistika yoki amaliy filologiya bo‘yicha maxsus mutaxassislar tayyorlaydi. Ular, asosan, huquqni muhofaza qilish, sud ekspertizasi muassasalarida, ayrimlari esa nashriyotlar, OAV va reklama agentliklarida faoliyat yuritadi.

Germaniyada tilshunoslikni amaliyot bilan integratsiya qilish an‘anasi juda rivojlangan. Mamlakatda yirik tibbiyot korxonalari, texnik zavodlar, farmatsevtika kompaniyalari o‘z “amaliy filolog”larini yollaydi. Ular texnik

“EL-YURT UMIDI” – AKADEMIK ERKINLIK IMKONIYATI

Bosh qonunimizga ko‘ra, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta‘minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi. Shuningdek, intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi, ta‘lim olish, sog‘lig‘ini saqlashi, uy-joyga, ishga joylashishiga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!



Ayni yondashuvni amalda ro‘yobga chiqarayotgan muhim institutlardan biri esa, shubhasiz, “El-yurt umidi” jamg‘armasi.

Prezidentimizning 2025-yil 5-may kuni qabul qilingan farmoniga muvofiq, jamg‘arma O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Istitqibolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi etib qayta tashkil etildi. Uning asosiy vazifalari yuqoridagi malakali, zamonaviy fikrlovchi, vatanparvar kadrlar ehtiyojini aniqlab borish, nomzodlarni vazirlik, idora va strategik tarmoqlarning aniq ehtiyojlari asosida professional yo‘naltirish hamda xorijdan qaytgan stipendiatalarga mos ish joylari va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yaratish hisoblanadi.

Farmon asosida yana bir muhim tashabbus ilgari surilmoqda. Ya‘ni 2025-yil 1-sentabrdan boshlab nafaqat yoshlar, balki vazirlik, idora, iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari orasidan maqsadli stajirovkaga yuboriladigan nomzodlar ro‘yxati shakllantiriladi. Maqsadli stajirovkaga yuboriladigan mutaxassislar stajirovka o‘tashda zarur bo‘ladigan xorijiy tilni o‘rganishi uchun vazirlik, idora va iqtisodiyot tarmoqlarining strategik korxonalari tomonidan tegishli sharoitlar yaratib beriladi.

Shuningdek, bakalavriat, magistratura va doktorantura dasturlari bo‘yicha ta‘lim olish uchun eng munosib nomzodlarni saralash maqsadida O‘zbekiston Prezidentining “El-yurt umidi” stipendiyasi joriy etiladi. Mazkur stipendiya g‘olblari ochiq tanlov asosida test sinovlari va subbat o‘tkazish orqali aniqlanadi. Test sinovlarida nomzodlarning intellektual, tahlil qilish va kreativlik qobiliyatlarini hamda psixologik barqarorligi baholalanadi.

Dunyoda xorijda ta‘lim olishni qo‘llab-quvvatlaydigan ko‘plab grant dasturlari mavjud. Ular orasida Fulbright (AQSH), Chevening (Buyuk Britaniya), DAAD (Germaniya), MEXT (Yaponiya), CSC (Xitoy), GKS (Janubiy Koreya) va Erasmus Mundus (Yevropa Ittifoqi) kabilar yoshlar va ilmiy tadqiqotchilari orasida ancha ommabop. Biroq bu dasturlar, asosan, iqtidorli xorijdagi talabalarni o‘z mamlakatlariga jalb

etishni maqsad qiladi, ya‘ni ularning asosiy strategiyasi “talent attraction” modeliga asoslangan.

“El-yurt umidi” jamg‘armasining o‘ziga xos jihati shundaki, bu tizim “talent development and return”, ya‘ni iqtidorli fuqarolarni xorijda o‘qitib, ularni yurtga qaytarish va salohiyatidan foydalanishga asoslangan ichki model asosida ishlaydi. Bu jihatdan uni Singapurning “Public Service Commission Scholarships”, Saudiya Arabistonining “King Abdullah Scholarship Program” kabi loyihalari bilan qiyoslash mumkin.

Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda moddiy qo‘llab-quvvatlash bilan birga ularning Akademik erkinligi ham muhim omildir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ilk bor akademik erkinlik kafolatlangan bo‘lsa-da, bu tamoyilni hayotga tatbiq etish ilmiy izlanishlar yo‘lida mustaqil fikr yuritish o‘lidan stipendiatalar tayyorlash orqali amalga oshadi. “El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan xorijda o‘qitilayotgan stipendiatalar, ayniqsa, ilmiy daraja olayotgan yoshlar ilm-fan, tahlil va innovatsiyalar sohasida mustaqil qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi orqali bu erkinlik tamoyilining amaldagi targ‘ibotchilariga aylanishi mumkin. Shu ma‘noda, jamg‘arma faoliyatiga nafaqat kadrlar siyosatining muhim bo‘g‘ini, balki akademik erkinlikni mustahkamlovchi vosita sifatida qaralishi kerak.

Shu va boshqa jihatlar bilan “El-yurt umidi”ni shunchaki grant emas, balki mamlakatimizning ertangi kuni uchun katta samoviy, desak ayni muddao bo‘ladi. Kelgusidagi rejali harakatlar esa jamg‘armani nafaqat iqtidorlarni rivojlantiruvchi, balki akademik erkinlikni ta‘minlovchi, xalqaro nufuzni oshiruvchi milliy institut sifatida takomillashtirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Umid SOBIROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti
o‘qituvchisi, Pensilvaniya universiteti magistri

Nuqtayi nazar



Prezidentimiz joriy yil 22-yanvar kuni oliy ta‘lim va ilm-fan sohasidagi ustuvor vazifalarga oid taqdimot bilan tanishish chog‘ida mamlakatimiz taraqqiyotining tayanchi sifatida bu yo‘nalishlarga katta e‘tibor qaratilayotganini alohida ta‘kidlab, yangi oliyog‘ohlar ochilgani qamrovni kengaytirib, ta‘lim jarayonlari sifat jihatidan yaxshilanayotganiga urg‘u bergandi.

ZAMON TALABI YOSHLARNING YETUK VA SALOHIYATLI KADRLAR BO‘LIB YETISHISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLAR YARATISHDIR

Darhaqiqat, so‘nggi yillarda mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimidagi ishlar ko‘lami tobora ortib bordiki, samarasiz ham uzoq kuttirmadi. Eng asosiysi, jarayon izchillik bilan davom etmoqda.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda oliy ta‘lim bilan qamrov ko‘rsatkichi 42 foizga yetgan. Mazkur raqam keyingi yillarda, ayniqsa, yaqqol sezilmoqda. Oliy ta‘lim yurtimiz taraqqiyotining tayanch kuchi sifatida namoyon bo‘lib, yoshlarning ilimga, bilimga, til o‘rganishga, xorijning yetakchi oliyog‘ohlarida tahsil olishga ishtiyoqi oshmoqda.

Albatta, sharoit bor joyda intilish, izlanish bo‘ladi. Bugun yangi O‘zbekiston yoshlari ana shunday imkoniyatga ega. O‘qish, o‘rganish yo‘llari ular uchun doim ochiq. Bu davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida sohani isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari aniq belgilab berilgan. Ushbu vazifalar ijrosi zamonaviy bilim va yuksak ma‘naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlovchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishga, oliy ta‘limni modernizatsiyalashga, ilg‘or ta‘lim texnologiyalarini tatbiq etishga xizmat qilmoqda.

Buxoro davlat universiteti jamoasi ham ilmiy salohiyatni oshirish, o‘quv jarayoniga ilg‘or texnologiyalarni jalb etish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali islohotlarga ega bo‘lishga harakat qilmoqda. Jamoamiz uchun may oyi, ayniqsa, samarali kechdi. Gap shundaki, 28-29-may kunlari Andijon davlat universitetida O‘zbekiston va Ozarbayjon oliy ta‘lim muassasalarida forumida ishtirok etdik. “O‘zbekiston — Ozarbayjon: oliy ta‘lim sohasida hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” mavzusida o‘tkazilgan forum O‘zbekiston va Ozarbayjon Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari hamkorligida tashkil etildi.

Tadbirda ikki mamlakatning ko‘zga ko‘ringan oliy ta‘lim muassasalar rahbarlari ishtirok etdi. Ular oliy ta‘limdagi ustuvor yo‘nalishlar, ilmiy tadqiqot



Obidjon HAMIDOV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

sohasidagi hamkorlik va talabalar hamda professor-o‘qituvchilarning akademik mobillicini kengaytirish bo‘yicha fikr almashdik.

Forumning biz uchun muhim voqeasi — Buxoro davlat universiteti va Ozarbayjonning qator yetakchi oliy ta‘lim muassasalarida o‘rtasida hamkorlik shartnomalari imzolandi. Jumladan, Boku oliy neft maktabi o‘rtasida imzolangan memorandum asosida xalqaro akademik mobillic dasturlari doirasida talabalar almashinuvi tashkil etilishi rejalashtirilmog‘da.

Shuningdek, Ozarbayjon davlat iqtisodiyot universiteti, Lenkaran davlat universiteti va Ozarbayjon davlat madaniyat va san‘at universitetlari bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Ushbu shartnomalar ta‘lim sohasida qo‘shma dasturlarni (Double Degree) joriy etish, Erasmus+ loyihalarida hamkorlikda qatnashish, shuningdek, ilmiy izlanuvchilar va professor-o‘qituvchilar uchun akademik almashinuvi yo‘lga qo‘yish kabi muhim masalalarni o‘z ichiga oladi.

hujjatlarni aniq va tushunarli tilda yozadi, qo‘llanmalar tuzadi, o‘qitish modulini ishlab chiqadi.

AQSHda huquqshunoslik bilan tilshunoslikning kesishgan joyida paydo bo‘lgan “Forensic linguistics” (sud lingvistikasi) so‘nggi yillarda juda ommalashgan. Hatto shaxsni nutqi orqali identifikatsiyalash, turli xujjatlar yoki kiberhujumlarda gumonlanuvchining matn uslubini tahlil qilib, uni fosh etish bo‘yicha qator mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Janubiy Koreyada koreys tilidagi IT mahsulotlar, dastur interfeyslari, ovozi buyruqlar tizimini takomillashtirish bo‘yicha maxsus markazlar bor. Ular ham amaliy filologiya yoki tilshunoslik bo‘yicha IT mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlaydi.

Misollar ko‘rsatadiki, rivojlangan jamiyatda filologiya allaqachon nazariy doiradan chiqib, kundalik hayotdagi turli ehtiyojlarga javob beradigan, yirik loyihalarni yo‘lga qo‘yadigan, yurt rivojida asosiy ustunlardan biriga aylangan. Davlat tiliga oid qonun O‘zbekistonda ana shu yo‘nalishdagi ishlarning qonuniy asosini yaratgan, endi uni amaliy filologiya yordamida to‘ldirish, boyitish, keng ko‘lamda amalga oshirish zarur.

Davlat tili to‘g‘risidagi qonun muvaffaqiyatli ishlashi uchun turli idora, vazirlik, ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, doimiy ravishda amaliy filologlarga murojaat qilish, ular bilan birga majlislar, davra suhbatlari, anjumanlar o‘tkazish lozim. Masalan, Oliy Majlis huzurida til siyosatiga daxldor qo‘mita faoliyati yanada kengaytirilib, amaliy filologlar, sotsiologlar, huquqshunoslar, jurnalistlar va IT soha vakillari qatnashsa, juda katta samara beradi.

Mamlakat imijini shakllantirishda marketing muhim o‘rin tutadi. Marketingning asosiy quroli reklama, axborot, taklif, jamoatchilik bilan aloqalaridir. O‘zbekistondagi reklama mahsulotlarida hali-hanuz uslubiy, fonetik, imloviy xatolar ko‘p uchraydi, ko‘plab xorijiy iboralar no‘rin qo‘llanadi. Aslida, reklama matnlarini tuzishda ham filologik yondashuv zarur. Xususan, amaliy filologiya vakili trend nomi, shiori, slogan, banner, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, maqsadli auditoriya bilan ishlash, brend “ovozi”ni yaratish singari masalalarda bevosita qatnashishi, xulosa berishi lozim. Milliy brend rivoji faqat dizayn yoki rang berish emas, balki nutqiy takribning ham puxta o‘ylangan, saviyali va jozibali bo‘lishini talab qiladi.

Davlat tili haqidagi qonun nafaqat ichki siyosat masalasi, balki xalqaro imijiga ham bog‘liq. Xususan, xorijiy davlatlardagi elchixonalar, turli xalqaro konferensiyalar, doimiy diplomatik mulqotlarda o‘zbek tilining me‘yordagi tarjimalari, aniq terminlari, puxta ishlab chiqilgan interaktiv platformalari bo‘lsa, O‘zbekistonning dunyodagi obro‘ e‘tiboriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayni paytda xorijda o‘zbek tili o‘rganilayotgan markazlar soni asta-sekin ortib bormoqda. Ular uchun metodik qo‘llama, onlayn platforma, darslik, atamalar lug‘ati, audio-videomateriallar ishlab chiqishda ham amaliy filologlar muhim rol bajarishi mumkin.

Hamkorlarimiz sohada o‘ziga xos salohiyatga ega. Xususan, 1930-yilda tashkil etilgan Ozarbayjon davlat iqtisodiyot universiteti (ODU)da 10 ta fakultet mavjud va ularda 18 mingga yaqin talaba tahsil oladi.

Lenkaran davlat universiteti nisbatan yoshi: 1991-yilda asos solingan. O‘quv dargohida hozirgi kunda 1500 dan ziyod bakalavr va 100 ga yaqin magistr tahsil oladi. 250 nafar professor-o‘qituvchi faoliyat yuritadi, ularning 150 nafari fan nomzodi.

Ozarbayjon davlat madaniyat va san‘at universiteti (ASUCA) 1923-yilda tashkil topgan bo‘lib, u mamlakatdagi eng yirik va nufuzli san‘at muassasalaridan biri sanaladi.

BuxDUning mazkur tashabbuslari xalqaro maydonda uning nufuzini yanada oshirish, talabalarga sifatli ta‘lim imkoniyatlarini yaratish hamda professor-o‘qituvchilar uchun ilmiy izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, keyingi yillarda universitetimizda ilmiy tadqiqot olib borish istagida bo‘lgan xorijliklar soni va geografiyasi kengayib bormoqda. Bugungi kunda Xitoy, Turkiya va boshqa mamlakatlardan tadqiqotchilar universitetimizda ilmiy izlanish qilmoqda.

2024-yilda malaka oshirish va ilmiy stajirovkalardan o‘tish maqsadida 120 marta xorijiy safar amalga oshirilgan bo‘lsa, ularning aksariyati jahon reytinglarida yuqori 1000 talikka kiruvchi oliy ta‘lim muassasalarida tashkil etildi.

Talabalarning kasbiy malakasini oshirish, zamon talabari asosida ilg‘or texnologiyalar bilan tanishtirish maqsadida yo‘lga qo‘yilgan xorijda amaliyot o‘tash va ta‘lim olish dasturlarida 136 talaba ishtirok etdi.

Dunyoning nufuzli oliy ta‘lim muassasalaridan kelib, universitetimizda dars o‘tgan, shuningdek, ish faoliyatini yuritgan xorijlik mutaxassislar soni 51 nafarni tashkil qildi.

Amaldagi shartnoma va kelishuvlar soni 240 dan ortiqni tashkil etadi. Ayni paytda 219 talabamiz 6 ta qo‘shma ta‘lim dasturida tahsil olmoqda. O‘tgan yilgi xalqaro loyihalar soni 17 ta bo‘lib, ulardan tushgan mablag‘ 2 milliard so‘mdan ortiqni tashkil etadi.

Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida oliy ta‘limda salohiyatni oshirish yo‘nalishidagi loyihalarimiz 2024-yilgi tanlovda BuxDU ishtirokida 3 ta loyiha tanlab olinib, universitetimiz ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekistonda birinchi o‘rinni egalladi.

“El-yurt umidi” jamg‘armasi tanlovlarida 6 nafar nomzod stipendiat deb topilib, ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha ham respublikamizda yuqori o‘rinlardan birini qo‘lga kiritdi.

Grimmetiks xalqaro reyting tizimida universitetimiz milliy koordinator hisoblanib, 2024-yil natijalariga ko‘ra, jahon reytingida 447-o‘rinni egalladi. Shuningdek, hozir nufuzli QS reytingida Osiyoning eng kuchli 1000 ta universiteti reytingiga kirgan. Bularning bari mamlakatimizda oliy ta‘lim tizimiga alohida e‘tibor qaratilayotgani samarasidir.



Ikki qalb bor. Ular shu darajada bir-biridan uzoqki, tutashmog'i sira mumkin emas. Biri — inson yuragi, poklik, to'g'rilik, olijanoblik timsoli bo'lgan qalb. Boshqa biri — qalbaki, qallob so'zlarining o'zagi, ya'ni egrilik, aldanchilikni ifoda qiluvchi qalb. Bir-biriga batamom qarama-qarshi bo'lgan tushunchalarning bir so'zda jam bo'lgani taajjubli.

Qalb so'zining nechta ma'nosi bor, bilasizmi? Balli! Men ham bilmayman. Keling, bu savolni ham Hazrat Navoiyga berib ko'raylik. "Xazoyin ul-maoniyy" bizga shunday javoblar beradi:

Zulf aro xoling ko'ngullar haylini toroj etar,
Qalb shabravlar libosin kecha olg'andek asas.
Ya'ni oshiq ko'ngli yor sochlarini sog'ingan, xayolan tut vasliga yetgan edi. Lekin gajak orasida yashirin poylab yotgan qora xol oshiq ko'nglini tutib oldi va toroj qildi. Bamisoli qalb shabrav — qorong'ida egri yurgan kishini asas — mirshab tutib olgani, libosini yechib jazolagani kabi. Lekin bu nasriy bayon, xolos. Baytning nafosati shundaki, Hazrat iyhom san'ati bilan qalbning ikki ma'nosiga ishora qilganlar. Yor sochlari qora tunga, sochlar orasida xayolan kezgan oshiq ko'ngli, ya'ni qalbi qorong'i tunda yurgan qalb — sayoq bir daydiga o'xshatilgan. Buyuk iste'dod nafasi tegsa, qovushmagan kalimalar qovushar ekan.

Ikki qalbnı tutashrgan yana bir bayt:
Qalb erur ko'nglimki, bog'labdur soching zunnorini,
Tufurakim, bir nafas chiqmas qoshing mehrobidan.
Ya'ni ko'nglim, aslida, sochingni belga zunnor qilib bog'lagan bir kofir. Lekin ajabki, qoshing mehrobidan bir lahza chiqmaydi va musulmonlik da'vo qiladi. Baytning mazmuni shu. Badiiyat-chi? San'at-chi? Birinchi san'at — tashbih, yor sochlari zunnorga — kofirlar belbog'iga o'xshatiladi, qoshlari esa mehrobg qiyos qilinadi. Ikkinchi san'at — tazod. Zunnor bilan mehrob boshqa-boshqa olam timsollari, kofirlik va musulmonlik belgilari. Ular yondosh bo'lishi mumkin emas.

SO'NGGI SAVOL QOLDI. NEGA YURAK QALB DEYILGAN? UNING QALLOBLIKKA, YOLG'ONCHILIKKA NIMA ALOQASI BOR? BILASIZKI, INSON ONGI SHAKLLANGAN ZAMONDAN BUYON AQL VA YURAK O'RTASIDAGI BAHS TUGAMAGAN. AQL ONG BILAN, YURAK HISSIYOT BILAN OSHNO. ODAMZODNI HISSIYOT KO'PALDAGAN. HAMMA XALQLARDA "KO'NGIL KO'CHASIGA KIRMA" DEGAN MAZMUNDAGI HIKMAT BOR. DEMAK, YURAK SO'ZIGA KIRIB ALDANGAN ODAMLAR UNGA QALB DEYA NOM QO'YIBDILAR.



Mana shunday mumkin bo'lmagan ishini mumkin qiluvchi qudrat she'riyatda bor. Zid tushunchalar yondosh kelib, badiiy unsur — tazodga aylanadi va go'zallik paydo qiladi. Uchinchi san'at — iyhom. Shakli bir, lekin mazmuni turlicha so'zning bir ma'nosini aytib, boshqa ma'nosiga ishora qilish iyhom bo'ladi. Qalb erur ko'nglim degan jumlanı biz, avvalo, ko'nglimning musulmonligi qalbaki, u aldoqchi, kofir deb tushunamiz. Ishora etilgan yashirin ma'no — Qalb erur ko'nglim — ko'ngil mening qalbmı, yuragim. Uning kofirliги ham, musulmonligi ham mening o'z xislatimdir degan falsafiy xulosadir.

Ko'ngil bilan yurak bitta tushuncha ekanı "Hayrat ul-abror"da aniq qilib aytilgan:
Bu-ki ko'ngul darsan erur bir yurak,
Ismi ko'ngul birla anga mustarak...
Ka'ba-ki olamning o'lub qiblası,
Qadri yo'q andoq-ki ko'ngul ka'bası.
Iyhom eng qiyin va eng yuqori qadrlanuvchi san'at hisoblanadi. Hazrat demishlarki: "Agar xossa ma'ni gar iyhom erur, anizt kunda yuz bayti halvom erur". Ya'ni agar shart shu eng murakkab iyhom san'ati bilan yozish bo'lsa, har kun yuz bayt bitish menga holva shimganchalik osondır. Yana bayt:
Ey Navoiy, ishq ila ko'nglim xayol etdi masof,
Ro'baro' bo'lgach, mening qalbmı sari tushdi shikast.
Ishq menga ko'p azob berdi. Ko'nglim bu azoblarga chidolmay, isyon ko'tardi va ishq bilan jangga kirmoqni xayol qildi. Lekin ro'baro' bo'lgach, qalbmı shikast topdi. Ya'ni ishqqa asirligicha qoldi. Qalbmı sari tushdi shikast jumlasida ham ikki ma'no bor. Bir ma'no qalb, ya'ni yurak. Boshqa ma'no — harbiy atama — qo'shin markazi. Lashkar jangga kirganda shoh markazda boradi. Maqsad — ham qo'riqlanish, ham saflarnı boshqarishga qulaylik. Shu sabab qo'shinning markazi qalb deyiladi. Shoh o'ng yo'so'l qanotga o'tsa, u yer ham qalb hisoblanadi. Sipohning yuragi shoh turgan joy bo'ladi.



Navoiy baytida ko'ngil ozodlik jangiga kirdi. Lekin ishq ustun kelib, qo'shinning markaziga — qalbiga zarba berdi. Boshqa ma'nosi — shoir qalbiga zarba berdi.

Qalbning harbiy atama ekanı boshqa bir baytda yanada aniqroq ko'rinadi:
Bir dilovardur ko'ngulkim, g'am sipohi qalbida
Ohi novak, toza dog'idur qalb qalqon anga.
Mening ko'nglim g'am sipohining markazida turgan dilovar — qo'rqmas — fidoyi askar. Chekkan ohlari kamon o'qlari bo'lib falakni to'ldiradi. Bag'ridagi jarohat, qotgan qon uning qizil qalqonidir.

Shu o'rinda navoiyxonlarga aytar so'zim bor. Agar Hazratning biror bayti tagida yashirin ma'no yotmagan bo'lsa, biror ishora, san'at bo'lmasa, bilingki, bayt Navoiyniki emas. Bu gap dahı shoir asarlarini targ'ib qiluvchi muhtaram olimlarimizga ham tegishli. Ustoz

g'azallari sizga zavq-shavq bermagan, qalbingizga o't solmagan bo'lsa, yaxshisi gapirmang. Go'zal ijod shartini matematika darsiga aylantirmang. Navoiy to'g'risida qovoq solib gapirish gunoh. Dono gaplarnı hamma aytishi mumkin. Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig'. Yor o'lung bir-biringizga... deyish uchun Navoiy bo'lish shart emas. Agar Navoiy shu so'zlarnı aytgan bo'lsa, demak, bunda sir-sinoat bor: yo chiroyli majoz, yo yashirin muammo, yo biror tashbih bor. Agar siz bu sinoatni ilg'amagan bo'lsangiz, faqat mazmuni bayon qilsangiz, Hazrat ruhi oldida shakkoklik qilgan bo'lasiz.

Mana, siz bilan birga "Xazoyin ul-maoniyy"ni varaqlab, qalb so'zining to'rt ma'nosini topdik. Izlasak, bu so'zning kosa tagidagi nimkosa mazmunlari yana chiqadi. To'rt devon bejiz "Ma'nolar xazinasi" deb atalmagan.

So'nggi savol qoldi. Nega yurak qalb deyilgan? Uning qalloblikka, yolg'onchilikka nima aloqasi bor? Bilasizki, inson ongi shakllangan zamondan buyon aql va yurak o'rtasidagi bahs tugamagan. Aql ongi bilan, yurak hissiyoti bilan oshno. Odamzodni hissiyot ko'p aldagan. Hamma xalqlarda "Ko'ngil ko'chasi kirma" degan mazmundagi hikmat bor. Demak, yurak so'ziga kirib aldangan odamlar unga qalb deya nom qo'yibdilar.

Emishki, taqdiri azal inson peshonasiga teskari xat bitgani kabi yurakni ham odam ko'ksi ichida teskari osib qo'yg'an. Shuning uchun egasini ters yo'lgacha boshlarmish. Bu gapga ishonmagan, yurak so'ziga kirgan bir devona yosh shoirning yozganlari budır:

Aybli emas bunda irodam,
Ma'zur tuting, do'stlar, siz meni.
Aql qancha haqli bo'lsa ham,
Tutar bo'ldim yurak izmini.

U baxsh etgan otashda yondim,
O'zi bo'ldi mening rahnamo.
Unga, faqat unga ishonдим,
Yurak meni aldamas aslo!

Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston xalq shoiri



ISTE'DODLAR USTAXONASI

“BO‘ZATOV FEST” NAVBATDAGI YOSH YULDUZLARNI KASHF ETDI

Musiqa tarbiya vositalaridan biri bo'lib, u insonning estetik va hissiy xususiyatlarini shakllantiradi. Chinakam musiqiy asarlar makon va zamonning axloqiy hamda siyosiy g'oyalarni umumlashtiradi. Odam holatini ohangsiz, navosiz, umuman, san'atsiz tasavvur qila olmaydi. Boisi, san'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa beribgina qolmay, uning har tomonlama kamolotga erishuvida ham muhim o'rin tutadi. Shu sababdan bugun yurtimizda musiqaning shaxs ruhiyatidagi roli to'g'ri his etilib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati oshirilmoqda.

Kishining kayfiyati biz yashayotgan hayotning bevosita ta'siriga ko'ra o'zgaradi: qayg'uramiz, quvonamiz, g'azablanamiz, shodligimizdan ichimizga sig'maymiz va hokazo. Bsharti, musiqa bunday kechinmalarni o'zida aks ettirarkan, demak, u ayni voqe'likni ifodalaydi. Biroq uning vazifasi muayyan hislar bilan cheklanganda bugungi kunga qadar yetib kelmasdi. Aslini olganda, musiqa fikrlarni, g'oyalarni, qadriyatlarini o'zida mujassamlantira olgan ma'naviy manbadir. Musiqiy tarbiyani asrashimiz kerakligi mohiyati ham shunda: chekimizga tushgan vazifa shunchaki o'tmish g'oyalarni takrorlash yoki saqlash emas, balki uni insoniyat manfaatlari nuqtayi nazaridan rivojlantirish, tanqidiy o'zlashtirish va ijodni qayta ko'rib chiqish zarurligi majburiyatidir.

2019-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida Bo'zatov tumani tashkil etildi. 2020-yil esa Prezidentimiz qoraqalpog'istonlik yoshlar bilan muloqot chog'ida yosh iste'dod egalari mana shu go'zal maskanga kelib, tumanning obro'si va dovrug'ini butun dunyoga tanitish uchun "Yoshlar ovozi" — Bo'zatov FEST" tanlovini o'tkazish tashabbusini ilgari surdi. Bu tashabbusdan so'ng 2021-yildan boshlab Yoshlar ishlari agentligi va hamkor tashkilotlar ushbu tanlovni o'tkazishi an'anaga aylandi. Tanlov baxshichilik, an'anaviy ijro (maqom), opera va estrada yo'nalishlari bo'yicha mahalladan boshlanib, sektor, tuman, viloyat va respublika bosqichlarida 3 ta yosh toifasida o'tkaziladi.

Yoshlar salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadida yo'lga qo'yilgan ushbu tanlovning 2025-yilgi respublika bosqichi esa 3-7-iyun kunlari ilk bor Toshkent shahrida o'tkazildi. Bunda har bir ishtirokchi san'atga bo'lgan yondashuvi, sahna madaniyati va ijodiy qobiliyati bilan hakamlar va tomoshabinlar e'tiborini qozonishga harakat qildi.

Hakamlar hay'ati Madaniyat vazirligi bilan hamkorlikda shakllantirildi. Baxshichilik, opera, estrada va an'anaviy ijro (maqom) yo'nalishlarida alohida tarkib tuzildi va ular har bir ijrochining mahorati, sahnada o'zini tutishi, tanlagan kompozitsiyalariga e'tibor berdi. Shaffoflikni ta'minlash maqsadida hududiy bosqichlarda vazirlik tomonidan tuzilgan ekspertlar hududlarga borib ishtirok etdi. Respublika bosqichida hududiy bosqichda saralangan 161 qatnashuvchi o'z imkoniyatlarini ko'rsatdi. Har bir yo'nalishda 42, baxshichilikda esa 35 yosh bellashdi. G'oliblar shu kunning o'zida e'lon qilib borildi.



Shu kunga qadar tanlov ko'plab yosh iste'dod egalari kashf etgan. Masalan, tanlovning 2024-yilgi mavsumida 23-30 yosh toifasi bo'yicha opera yo'nalishida 1-o'rinni ko'lga kiritgan Otabek Nazirov 2025-yil 25-yanvar kuni Prezident farmoniga ko'ra "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" faxriy unvoni bilan taqdirlandi. Tanlovning 2024-yilgi respublika bosqichida 10-15 yosh toifasida 1-o'rinni ko'lga kiritgan Yasmina Hunsiddinova esa Belarusda o'tkazilgan XXII "VITEBSK — 2024" xalqaro bolalar musiqa tanlovida Gran-prini ko'lga kiritdi.



Bundan tashqari, "Bo'zatov FEST"da 1-o'rinni ko'lga kiritgan 12 nafar iqtidorli yosh 2023-yil 17-28-may kunlari Italiyada malaka oshirib, "O'zbekiston madaniyati" haftaligida konsert dasturlari bilan ishtirok etdi. Shuningdek, "Yoshlar ovozi" — Bo'zatov FEST"ning 2021-2024-yillardagi respublika bosqichi g'oliblari va ishtirokchilari orasidan 6 nafar "Nihol" mukofoti sovrindori, 2 nafar "Yosh ijrochilar" respublika tanlovi sovrindori, 1 nafar "Top Music" loyihasi g'olibi, 2 nafar "Top Music" loyihasi sovrindori, 6 nafar xalqaro tanlovlarda g'olib va sovrindor bo'lgan.

“Sovrinlarni taqsimlash emas, yoshlarga maslahat berish — asl vazifamiz”

— Har yili bu ajoyib tanlovda bir-biriga o'xshamagan, betakror ovozlari kashf etiladi. Ba'zi ishtirokchilar g'olib bo'lmagunga qadar qayta-qayta urinib ko'raveradi va bu juda ham zo'r. Boisi,



o'rtada kuchli, sog'lom raqobat yuzaga keladi. Bugun, ayniqsa, 10-15 yoshli ishtirokchilar orasida iste'dodlilar bor. O'tgan yillardagi g'oliblar bugun xalqaro tanlovlarda, davlat tadbirlarida ishtirok etmoqda. Bu hammamiz uchun faxr bo'lishi kerak, chunki tanlov ko'zlagan maqsadiga erishyapti, — deydi hakamlar hay'ati a'zosi, "Do'stlik" ordeni sohibi Shirin Mamatova. — Opera yo'nalishida ham nihoyatda iste'dodli ishtirokchilarni ko'rdik. Baholashda biz faqat ovoz emas, balki sahna madaniyati, asar tanlovi, diksiyasi, chet tilidagi matnlarni to'g'ri va his bilan ijro etishiga ham e'tibor qaratdik. Ayrim ishtirokchilarning sohir ovozi bor, lekin ustoz ko'rmaganı bilinadi — sovrinlarni taqsimlash emas, balki aynan shunday yoshlarga to'g'ri maslahatlar berib, ustoz topish, o'qish va o'rganishni davom ettirishi lozimligini aytishimiz asl vazifamizdir. Shuning uchun hakamimiz va buni uddasidan chiqar olдик deb o'ylayman. 10-15 yosh toifasida baholash bir oz murakkabroq, chunki bu yoshda opera ijrosi og'ir. Hali ovoz to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shunga qaramay, juda tiniq, qo'ng'iroqdek ovozlı bolalarni ko'ryapmiz. 16 yoshdan yuqori ishtirokchilarning ko'pi esa konservatoriya talabasi, professional sahna tajribasiga ega bo'lgan yoshlar — ularni, albatta, alohida baholaymiz. Tanlov mobaynida o'zim uchun kashf qilgan ishtirokchilar orasida Namangan viloyatidan kelgan Robiya Abdurahimova ajralib turdi. Uning ovozi, sahnada o'zini tutishi, ko'rinishi — barchasi hakamlar va muxlislar yodida qoldi. Qashqadaryalik Yashnarbek G'ofirov ham chin iste'dod ekan. Ularning kelajakda nafaqat yurtimizda, balki xorijiy sahnalarda ham porlashi mumkinligiga ishonchım komil.

“Hayotbaxsh o'zgarishlar allaqachon ro'y bergan”

— So'nggi yillarda ko'p sohalar qatori musiqa madaniyati jabhalarida ham hayotbaxsh o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Tanlovning maqom yo'nalishida ishtirok etayotgan yoshlarnı kuzatar ekanman, asrıy maqom san'atiga e'tibor benihoya ortganiga yana bir bor amin bo'ldim. Bu borada, shubhasiz, Prezidentimizning 2017-yil 17-noyabrdagi "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim ahamiyat kasb etdi. Tarixan qisqa davr mobaynida ko'p asrlik xalqchil va mumtoz musiqa an'analarni o'rganish, o'zlashtirish va targ'ib etishga qaratilgan qator e'tiborli ishlar amalga oshirildi, — deydi O'zbekiston xalq artisti, hakamlar hay'ati a'zosi Munajat Yo'ldiyeva. — Dunyodagi har bir xalqning borligidan darak beruvchi omil bu — uning tili. Uning buyukligini ifodalovchi mezon esa ma'naviyati. Ma'naviyatning asosiy tarmoqlaridan biri — musiqa. Musiqa dunyosi juda keng va barcha xalqlarga teng daxldor ekanı bilan boshqalardan farq qiladi. Musiqa dunyosi insoniyatning hayoti, yashash tarzi, faoliyati, mehnati, qadriyati, an'anasini aks etuvchi vosita sifatida ahamiyatli. Mana shu mumtoz musiqiy merosimizning eng ulkan qismini maqom ijodiyoti tashkil etadi. Maqomlarda mujassam bo'lgan ma'naviy-badiiy go'zalliklarnı jonli jarayonda namoyish etish va ularni tinglovchiga yetkazib berishda ijrochilik san'ati qariyb hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Binobarin, mumtoz musiqa asrlar osha hayoti va rivoji, bir necha omillar qatorida, shubhasiz, ustoz-hofiz va sozandalarning yuksak ijrochilik mahorati bilan uzviy bog'liqdir. Bugun shu jarayonlarning yorqin ifodasi keksa hamda yetuk san'atkorlar bilan birga yosh xonanda va sozandalar faoliyatida kuzatilayotgani quvonarli hol.

Maqomlarnı ijro etish uchun maxsus tayyorgarlik, bilim va albatta, keng diapazonli ovozga ega bo'lish talab etiladi. Maqomlar odatda bir necha yillar davomida ustoz-shogird qabilidagi ta'lim asosida o'zlashtiriladi. Sifatsez yoki buzib ijro etish maqom haqida noto'g'ri tasavvur shakllantirib qo'yadi.

“Musiqani jilovlash ilmini egallasam deyman”

— Bir donishmand aytganidek, san'at tomonidan tarbiyalangan odam yaratuvchi ijodkorga aylanadi. Qalbmı musiqa oshufta. Istalgan joyda, istalgan vaqtda o'zim bilib-bilmay nimanidir xirgoyi qilib yuraman. Musiqani hayotim mazmuniga aylantirsam, uni jilovlash ilmini egallasam deyman. Ba'zan ichimdan doim yangi ohang sirpanib chiqadivuy uqlar ortiga g'oyib bo'ladi... Men yana yangi marlamani zabt etishim kerakligini anglayman. G'oliblar qatorida ekanimdan, albatta, xursandman, biroq bu bilan to'xtab qolmoqchi emasan, — deydi opera yo'nalishi bo'yicha respublika bosqichi g'oliblaridan biri (2-o'rin) Yashnarbek G'ofirov. — Musiqa men uchun inson tuyg'ulari, ruhiy kechinmalari, orzu va umidlarini so'zsiz ifodalaydigan tarjimon yoki tarjimonisiz tushuniladigan san'at asari. Musiqa yaralibdikı, insonlarnı ezigulikha, xalqlarnı, millatlarnı birlashtirishga, ularni ruhan yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Dunyoni go'zallik qutqaradi deyishganida, bu go'zallikning bittasi san'at, aniqrog'i, musiqa ekanı nazarda tutilgan bo'lsa, ajabmas. Musiqiy san'at asarlari san'atning boshqa turlari kabi kishini hayot va olam haqida fikrlashga, unda estetik didni, maftunkor va go'zal, teran dunyoqarashni shakllantirishda, ongli mushohada qilishga, o'zgalarga yaxshilik qilishga undaydi. Musiqa har bir millatda o'ziga xoslik bilan birgalikda umuminsoniy qadriyatlarini ham rivojlantirishga, turli xalqlarning musiqiy va boshqa san'at turlaridan bahramand qilishda ko'zga ko'rınmas ko'prik vazifasini o'taydi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlı chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-646.
36191 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhili: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshmaxonasida chop etildi.
Boshmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turoı ko'chasi, 41-uy.

O'zA yakuni — 05:35 Topshirildi — 05:45

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05